

The background of the cover is a painting. In the foreground, a man with a white beard and a white turban, wearing a blue robe with a red sash, looks intently at the viewer. To his left is a large, ornate hourglass. In the background, a landscape unfolds with a winding path, a small figure in the distance, and a city or settlement nestled in a valley. The sky is a deep blue with a crescent moon and a star, suggesting a night scene.

Yusup XALIMBETOV



**BUYUK MEROS VA
ZAMONAVIY
SIVILIZATSIYA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va
innovatsiya Vazirligi
Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti.
Xalimbetov Yusup Masharipovich

**BUYUK MEROS VA
ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA**

SamDTU
axborot-resurs markazi

"MAHORAT"
Samarqand – 2024

УДК: 393.99

ББК: 63.5

X 21

Xalimbetov Yusup Masharipovich “Buyuk meros va zamonaviy sivilizatsiya” [Matn]: Samarqand: «Mahorat» nashriyoti, 2024. – 76 bet

Mas'ul muharrir:

Samarqand Davlat Meditsina universiteti dotsenti A.N.Maxmudova

Taqrizchilar:

Iqtisod fanlari doktori, professor M.M.Muxammedov,

Meditsina fanlari doktori, professor N.M.Shavazi,

Meditsina fanlari nomzodi, dosent S.J.Yuldashev

SamDTU 2024-yil 31-yanvar kuni bo'lib o'tgan 6-son Ilmiy Kengash bayonnomasidan:

Ushbu “Buyuk meros-zamonaviy sivilizatsiya” nomli risola Samarqand Davlat tibbiyot universitetining 2024-yil 31-yanvar kuni bo'lib o'tgan 6-son Ilmiy Kengashi qarori asosida ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti Y.M.Xalimbetov tomonidan tayyorlangan va nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9260-1-3

© Yusup Xalimbetov, 2024
© «MAHORAT» nashriyoti 2024

KIRISH SO‘ZI

“Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o‘zaro hurmat, buyuk merosimizni ko‘z qorachig‘iday asrash, yosh avlod o‘rtasida fidoyi ajdodlarimizning insonparvarlik sohasidagi boy merosi, mardlik va jasurlik fazilati yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi”¹.

Bu risolada bundan X asr muqaddam avval, buyuk qomusiy olim, yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino “Salomatlikni saqlashning asosiy mahorati, inson hayoti uchun muhim bo‘lgan umumiy omillar mo‘tadilligini ta‘minlashdan iboratdir” degan edi.

Allomanazarda tutgan mazkuromillarga tanamutanosibligi, oziq-ovqat va ichimlik tana (organizm)ni chiqindilardan tozalash, tana vaznini (to‘g‘ri) saqlash, burundan olinadigan nafas (havo)ni yaxshilash, kiyimni moslashtirish (mos kiyimni faslga ko‘ra kiyish) jismoniy va ruhiy harakatlar mutanosibligi kabilar kiradi.

Sivilizatsiya nafaqat inson hayotini yaxshilashga yordam beradi, balki so‘nggi yillarda u tufayli ayrim o‘ziga xos muammolar ham tug‘ilmoqda.

Ushbu holatni ongli ravishda tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

– Kelajak avlod farovon hayot kechirish uchun ularda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini eng yoshlik chog‘idan boshlab singdirib borishimiz, yomon illatlardan yoshlik chog‘idan asrab-avaylashimiz, bu borada avlodlar merosidan, o‘gitlaridan o‘rnak sifatida muntazam va o‘rinli foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Ma‘naviy hayotimizda yangi islohotlar davri, 22 dekabr kuni Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi.

BUYUK MEROS VA ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va san'at-madaniyat xodimlari bilan o'zkazgan tarixiy ma'ruzasida jahon madaniyatining qimmatbaho yutuqlarini, xususan, yoshlarga ma'naviyat va ma'rifatga oid fikrlar tarixini chuqur o'rganish va umumlashtirishni ularning kelajak avlodlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda o'ynayotgan muhim roli taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonning ma'naviyati va madaniyati, mafkuraviy qiyofasi bashariyat o'zining butun tarixi davomida yaratgan ilg'or qarashlar negizida shakllanadi va rivoj topadi. Zotan, Sh.M.Mirziyoyevning "Insoniyat yaratgan barcha boyliklarni bilib, o'z ongini boyitgan taqdirdagina uchunchi Renessans ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Ma'rifatparvar bobolar g'oyalarini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi.

Yoshlarning axloqiy qarashlarini qayta ishlash, to'g'ri baholash, insoniyatning axloqiy taraqqiyoti barcha natijalarni umumlashtirish negizidagina ma'naviy ma'rifiy ilmlarning haqqoniy to'g'ri tarixi yaratilishi mumkin.

O'rta Osiyodagi ma'naviyat va ma'rifatga oid fikrlarning tarixiy taraqqiyotini sinchiklab tadqiq etish uning asosiy tendensiyasi islom qonun qoidalarini chuqur o'rganish, u umuminsoniy taraqqiyotning bir qismi sifatida yangilovchi progressiv axloqiy tasavvurlar va ma'naviy kategoriyalar

bilan boyib, rivojlanib kelganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy masalalarga oid asarlarida Yevropaga xos fikrlar ta'siri ko'rinib turadi. Shu boisdan ma'naviy g'oyalarni, xususan, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'beklarning ma'naviy g'oyalarini antik dunyoqarashda yashagan buyuk allomalarning qarashlari bilan taqqoslab chiqish va tashviqot qilish lozim.

O'rta asrlar davrida O'rta Osiyoda eng atoqli olimlari va faylasuflaridan biri Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) edi. Beruniyning Buxoroda tug'ilgan zamondoshi Ibn Sino (lotinlashtirilgan ismi – Avitsenna) faqat yaqin va O'rta Sharqdagina emas, balki undan uzoq-uzoqlarda ham g'oyat mashhur edi. Ibn Sinoning asarlari Sharq va G'arbiy Yevropa falsafasi va tabobat faniga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ko'p asarlari Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilingan. Uni "faylasuflar knyazi" va "vrachlar knyazi" deb bejiz aytmagan. Olimning hamma asarlari ham hozirgi kungacha yetib kelmaganligini taassuf bilan qayd qilib o'tmoq lozim.

Olimlar bildirgan yagona fikrga ko'ra, Ibn Sino ensiklopedik bilimlar sohasi bo'lgan. Uning ijodi o'sha zamondagi bilimlarning barcha sohalarini: matematika, astronomiya, fizika, ximiya, biologiya, meditsina, falsafa, filologiya, etika va estetikani qamrab olgan.

Arab tilida yozgan boshqa mutafakkirlar kabi Ibn Sino ham dunyoqarashi shakllanishida qadimiy grek filosofiyasi va fani, ayniqsa, Arastu filosofiyasi muhim rol o'ynadi. Bu mutafakkirlarning Arastuni o'zlarining birinchi ustozini (muallimi avval) deb hisoblashlari, uni "mutlaq

donishmand" "aql idrok toji"² deb ataganlari bejiz emas. O'rta asr Sharqida shu qadar mashhur ediki, uning asarlari bilan tanishib chiqmasdan va uning g'oyalarini bilmasdan turib filosofiyani o'rganish va umuman dunyoviy bilimlar olish mumkin emas edi.

"Arab madaniyati uchun xarakterli bo'lgan tabiatni o'rganishga intilish deb yozgan edi. O.V.Traxtenberg, aristotelizmning aynan qonuniy jihatini idrok etishga olib keldi. Bu jihat esa, pirovard natijada, muayyan darajada oshkoro bo'lgan diniy xulosalarga sabab bo'ladi"³.

Ba'zi bir falsafiy masalalar va Ibn Sinoning fikri Arastu ta'limotiga hatto qarama-qarshi bo'lgan ko'p hollarda u o'z qarashlarini himoya qilib, Aristotel ta'minotini tanqid ham qilib chiqadi.

Al Kindi, Zakariya ar-Rozii, Farobiy, Beruniyning hamda yaqin va O'rta Sharq boshqa mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari ham Ibn Sinoning dunyoqarashiga muayyan ta'sir ko'rsatgan. Bular orasida Farobiy va Beruniyning nomi ayniqsa ajralib turadiki, bu mutafakkirlarning Ibn Sino ijodiga ta'siri juda katta bo'ldi. Arastu "Metafizika"sini juda yaxshi tushunib olishida Farobiyning mashhur kitobga yozgan sharhlari ko'p jihatdan Ibn Sinoga katta yordam berganligi faxri ushbu fikrning isboti bo'lib xizmat qilishi mumkin"⁴.

2. A.K.Zakariyev. *Psixologiya Ibn Sino* Baku izd. AN. Az SSR.

3. O.V.Traxtenberg. *Ocherki po istorii zapodnoe srednevekovoy filosofiy* M.1957 s.57

4. S.N.Grigoryan. *Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednogo Vostoka.*

Dunyoni va ijtimoiy voqealarni tushunishda Ibn Sinoning dunyoqarashi birlamchi asos sifatida osuda an'anaviy tan olishga tayandi. Ibn Sino o'zining mashhur "Donishnoma" kitobiga o'zidan ilgari o'tgan ba'zi bir olimlar kabi falsafa fanini ikki guruhga, amaliy va nazariy guruhlarga bo'ladi. Birinchisi, deb yozgan edi u: – bizni o'z xatti-harakatlarimizdan xabardor qiladi. Uning foydasi shundanki, u shu dunyodagi ishlarimizni yo'lga qo'yish uchun nimalar qilishimiz lozimligini o'rgatadi. Ikkinchisi esa bizning jonimiz o'z shaklini kasb etishi va u dunyoda baxtiyor bo'lishi uchun buyumlarning borlik holati haqida bizni xabardor qiladi"⁵.

Abu Ali ibn Sinoning saqlanib qolgan asaralarining o'zidan ("Sevgi haqida risola", "Jon haqida risola", "Parrandalar haqida risola" etika va boshqalardan) allomaning etik qarashlari haqida fikr hosil qilish mumkin.

Ibn Sinoning tarjimai holida shu narsa ma'lumki, u ma'naviyat bo'yicha uning yana bir fundamental asari – "Yaxshi ish va gunoh" bo'lgan, bu asarni u Urganchda turgan chog'ida yozgan.

Mutafakkir ma'naviyat haqida gapirar ekan, ma'naviyat – bu insonning o'z-o'zini reflekslashi haqidagi fan, uning o'zini kuzatishi va boshqalarning uning xulq-atvoriga bergan baholari natijasidir. Axloq – bu Baxtli bo'lish uchun inson o'z axloqiy odatlari va xatti-harakatlarida qanday bo'lishi lozimligi haqidagi fandır deb ta'kidlagan edi.

5. Ibn Sino "Danishnoma" Dushanbe Tadjikistan, 1957. 139-bet.

Ibn Sinoning diniy sohadagi g'oyalari shubhasiz islom mafkurasiga sig'mas edi. shu boisdan musulmon ruhoniylari deb aylab, quvg'in qilganliklari bejiz emas. U buyuk mutafakkir bo'lsalar-da, taqdir taqozosi bilan darbadar bo'lib yurdi.

Ibn Sino etikasining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, uning etik qarashlari psixologik kuzatuvlari bilan chambarchas aloqador. ko'pincha ular bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Axloqqa oid talay muammolar insonning psixik va ma'naviy xossalarining irodaviy namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan turib talqin etiladi.

Ibn Sinoning jon haqidagi ta'limoti bunga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ibn Sino kishi jonini ikki kuchga: harakat qiluvchi va idrok etuvchi kuchlarga bo'ladi. Idrok etuvchi kuch ham ikki tomonlama: aql bilan mushohada etuvchi va amaliy bo'ladi. Aql bilan idrok etish ish bilan bog'liq emas, amaliyligi esa xatti-harakatlarga sabab bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkir inson xatti-harakatlarining sababini, uning ijobiy yoki salbiy axloqiy xislatlarini odamning o'zidan qidiradi, u mazkur xislatlarni psixologik nuqtai nazardan asoslab beradi. Insonning mohiyatini undan tashqarida deb e'lon qilgan va axloqiy hatti harakatlarini Allohning irodasi bilan bog'langan holdagina asoslagan islomning diniy etikasiga nisbatan olganda bunday qarashlarning bebaholigi shubhasizdir.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, insonning joni ikki funksiyani: nazariy aql-idrok funksiyasini (Uning vositasi bilan aql yeta oladigan universallar, ya'ni umumiy tushbunchalar anglanadi.) va amaliy aql-idrok

funksiyasini bajaradiki, bu keyingisi nazariy aql-idrok xulosalarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Ana shu funksiya "amal qiluvchi aql" (aql-al-amaliy) deb ataluvchi sohani tashkil etadi. Bunda gap inson jonining ba'zi bir kuch-quvvati ustidan beradiki, u tanani boshqaradi hamda nazariy aql yordami bilan uni takomillashtirish maqsadini ko'zlaydi.

Amal qiluvchi aql o'z navbatida "uyg'otuvchi" va "o'ylovchi" kuchlar bilan aloqasining ahamiyati shundan iboratki, amal qiluvchi aql ta'siri ostida unda ba'zi bir tasavvurlar, chunonchi, uyalish, nomus, or va shu kabi tasavvurlar yuzaga keladi. "O'ylovchi" kuch yordami bilan amal qiluvchi inson faoliyatining rejalarini belgilab beradi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, amal qiluvchi aql insonning yolg'on, zo'ravonlik, soxtalik va shu kabi salbiy axloqiy ishlariga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, Ibn Sinoning amaliy aql haqidagi ta'limoti psixologik ta'limotga qaraganda ko'proq etik ta'limotdir, chunki u inson xulq-atvori normalarini qamrab oladi.

Ibn Sino ham xuddi Farobiy kabi yaxshilik va yomon kategoriyalarning ishlab chiqishga muayyan darajada e'tibor beradi. Bu kategoriyalarga ular etik jihatdangina e'tibor beradi. Bu kategoriyalarni ular etik jihatdangina talqin etadilar. "Dunyoda mavjud bo'lgan jami borliq, – deb yozgan edi Ibn Sino, – o'z tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilish esa o'z mohiyati e'tiboriga yaxshilikdir"⁶.

6. *Ibn Sino. Risolai ishq (fors tilida) Tehron. 6-bet.*

Ibn Sinoning fikricha, har bir kishi majburiyat ostiga va o'z yaxshi niyati tufayli yaxshilik qiladi. Zarurat yuzasidan emas, balki majburiyat yuzasidan qilingan va tarabgo'y maqsadni ko'zlamagan yaxshiliknigina u mukammal yaxshilik deb biladi.

“Yaxshilik tushunchasining o'zi, – deydi Ibn Sino, – ikkita ma'noga ega; birinchisi – o'z tabiatiga ko'ra yaxshilikdir, ikkinchisi biror kimsa uchun qilingan yaxshilikdir”⁷.

Mazkur so'zning birinchi ma'nosida shu narsa nazarda tutiladiki, o'z tabiatiga ko'ra buyumlar, hodisalar o'z ichida sifatlarga bo'linadi. “Yaxshilik so'zini bunday talqin etish umumfalsafiy mazmunga ega va shaxsning ahloqiy xislatlari bilan bevosita bog'lanmagan; ikkinchi aspektda u baholovchi ahamiyatga molik bo'lgan etik kategoriya sifatida maydonga chiqadi, ya'ni shaxsning ahloqiy qiyofasiga bog'liq bo'ladi.

Agar yaxshilik tushunchasini ma'naviy kategoriya sifatida analiz qilib chiqiladigan bo'lsa, u bir-biriga qarama-qarshi ikkita jihatdan konkret tarzda namoyon bo'ladi.

Bir tomondan, yaxshilik uni ro'yobga chiqaruvchi kishiga taalluqlidir, ikkinchi tomondan bu yaxshilik uni xos etuvchi kishiga taalluqlidir. Bunday bo'lish Ibn Sino uchun g'oyat muhimdir, chunki u shuni ko'rsatib berishga intiladiki, aslini olganda, kishilarga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi kishini ochiq ko'ngil kishi deb atash mumkin.

Olimning fikriga ko'ra, yaxshilikka olib boradigan yo'l faqat insonning kamoloti orqali o'sishi mumkin. “Umum tan olgan fikrga binoan yaxshilik qilish niyati qadr-qimmat va kamolot belgisidir”⁸, – deb xulosa chiqaradi u.

7. Ibn Sino. “Donishnoma”. 216-bet.

8. Ibn Sino. “Donishnoma”. 217-bet.

“Rohat-lazzat” va “azob-uqubat” kategoriyalar Ibn Sino g‘oyasida markaziy o‘rinlardan birini ishg‘ol etadi. Mutafakkir: – Rohat-lazzat bilan azob-uqubat bevosita idrokdan

kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi. Buning ma'nosi shuki, idrok bo‘lmagan joyda rohat-lazzat ham, azob-uqubat ham yo‘q.

Ibn Sino xuddi Beruniy kabi ichki kuchlar vositasi bilan erishilgan rohat-lazzatni asosiy va oqilona deb hisoblaydi. – Zaif, tuban va xasis kishilarda, – deb uqtiradi olim, tashqi kuchlar vositasi bilan erishiladigan rohat-lazzat ustun turadi. Ibn Sino quyidagi muqoyasini keltiradi. – Agar ichki jihatdan kuchli bo‘lgan kishi mavqega, baland martabaga, hurmatga erishishga intilsa, tuban va qo‘rqoq rishi noz-ne'matlarni so‘rab oladi. Ichki kuchlari jonsiz bo‘lgan kishi, – deb yozgan edi Ibn Sino, – tuban kishidir va hatto ana shunday kuchlar hali to‘la-to‘kis harakatga kelmagan bolalar kabi ichki kuchlarning amal qilishini bilmaydi ham”.

Ibn Sinoning ta'limotidan kelib chiqib, biz shuni qayd qilishimiz mumkinki, rohat-lazzatga intilmaydigan kishi yo‘q. Biroq axloqiy mukammal, ma'naviy boy kishi ma'naviy rohat-lazzatdan bahra ola biladi, nodon, zaif kishi esa hissiy lazzatga intiladi. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, haqiqiy inson eng avvalo ma'naviy kamolotga intiladi va faqat shundan keyingina hissiy lazzat olishga harakat qiladi.

Ibn Sino o‘z asarlarida rohat va baxt g‘oyalarini ishlab chiqishga katta ahamiyat berdi. Shuni qayd qilish zarurki, olim ushbu g‘oyalarni, umuman olganda, rohat-lazzat muommalarini hal qilish niyatida asarlar yaratdi.

Mutafakkir rohat kategoriyasi bilan bir qatorda baxt

kategoriyasini ilmiy g'oyalari bilan boyitadi. Ibn Sino insonni yuksak kamolot sifatida ulug'lab, dunyodagi inson baxtini inkor etuvchi ma'naviy g'oyalarga qarshi sog'lom fikrlarni dunyoga tarqatdi. Insonning shu dunyodagi baxtga bo'lgan qonuniy huquqini barqaror etadi.

Olim o'zining "Qushlar haqidagi risolasi" asarida osmondan baxt qidirish bema'nilikdir. Baxt o'z do'stlarining yoningda yashagan, ya'ni sen har kuni ko'rishib turadigan, birga ishlaydigan va o'z vaqtingni xushchaqchaq o'tkazadigan do'stlaring birga yashaydigan joydir deb ta'kidlaydi.

Ibn Sino huquqsizlik va adolatsizlik hukm surgan pul, boylik insonning qadrini belgilovchi asosiy o'lchov bo'lgan, inson aqli va qadr-qimmatini yerga urilgan jamiyatdagi hukmron axloqqa obyektiv baho berdi. Ana shularning hammasini u podsho Mahmud G'aznaviyning ta'qiblari ostida bir shahardan ikkinchi shaharga, bir mamlakatdan boshqasiga qochib yurishga majbur bo'lgan chog'larida boshidan kechirgan edi.

Ammo mutafakkir nima sababdan bir xil kishilar mo'l-ko'lchilikda, zeb-ziynat ichida, shu dunyoning baxt-saodatidan lazzat olib yashashlari-yu aksar ko'pchilik esa qashshoqlik va huquqsizlikda yashayotganligining asl sabablarini tushuna olmadi.

Baxt Ibn Sino nazarida, avvalo shaxsning intellektual kamolotini o'z ichiga oladi. Faylasuf baxtning nisbiy xarakterini ta'kidladi, chunki o'sha davr sharoitida absolyut baxt mumkin emas deb ta'kidladi.

Ibn Sinoning baxt haqidagi ilmiy g'oyasi haqidagi ta'limotida ikkinchi qarama-qarshi jihat shundan iboratki, u

BUYUK MEROS

har holda u dunyoda erishiladigan baxtni eng mukammal va yuksak baxt deb tan oldi.

“Kimki o‘z ruhi uchun bu ruh tanadan ayrilgandan keyin hosil bo‘ladigan baxtiyorlik holatini qidirsa, – deb yozgan edi u, – shu kishi kishidir”⁹. Bu baxt uning qarashiga ko‘ra, faqat samoviy lazzatgina taalluqli bo‘lishi mumkin, u rohat-lazzatning yuksak darajada namoyon bo‘lishidir. Ibn Sino hayotida shunday paytlar ham bo‘lganki, bunday paytlarda u qiyinchiliklar oldida ikkilanib, to‘g‘ri yo‘lni topa olmasdan, umidsizlikka tushib qolgan.

“Oh, qani men o‘zim kimligimni bilsam edim, – deydi u o‘z she‘rlaridan birida, – agar baxtli bo‘lishni bilsam edim, dunyoda darbadar bo‘lib yurish menga ne darkor, tinch-xotirjam yashayverardim. Maboda bunday bo‘lmasa-chi, fig‘on qilib, ko‘z yoshlarim to‘kardim”¹⁰.

Ibn Sino sevgi haqidagi ta‘limoti muayyan nazariy qiziqish uyg‘otadi. Olimning fikriga ko‘ra, har bir mohiyat neorganik dunyoda ham, organik dunyoda ham kamolot sari intiladi, har qanday yashash harakatlantiruvchi kuchning quvvatidir. Uning hatto hissiyoti bo‘lmagan oddiy tanada ham sevgi mavjudligi haqidagi qarashlari ana shundan kelib chiqadi. Lekin har holda olim: – Eng yuksak sevgi bu insoniy sevgi bo‘lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi, uni pok ko‘ngil va ko‘rkam kishiga aylantiradi. Sevgisiz kishi hech nima, chunki – deydi mutafakkir, – bunday tuyg‘udan mahrum bo‘lgan kishi o‘z maqsad va istagiga erisha olmaydi”¹¹.

9. Ibn Sino. “Donishnoma” 198 bet.

10. Ibn Sino “Ma‘rifati shoir”. Toshkent U=SSR F.A. nashriyoti 1962. 16-bet.

11. Ibn Sino. “Risolai ishq” (fors tilida). Tehron. 3-bet.

Binobarin, bunday kishi aslini olganda, kamolotga yetmagan bo'lib, axloqiy nuqsonlarga egadir.

Mutafakkir har bir kishi o'z tabiatiga ko'ra muhabbat tuyg'ulariga ega, chunki kamolotga intilish inson zotiga xosdir deb o'ylaydi.

Sevgi tug'ma xislatdir, ya'ni inson tabiatdan ajratib bo'lmaydigan tabiiy zarurat sifatida maydonga chiqadi ¹²...

Inson ehtirosi majnunsifat sevgini uyg'otuvchi kuch sifatida amal qilishi mumkin. Ibn Sino ta'kidlaydiki, aql asosidagi sevgi ehtiros kuchiga berilmaydi. Sevgining ana shu turlari o'rtasida muttasil kurash boradi. Agar ana shunday kurashda aqli sevgi yengib chiqsa, u albatta, yaxshilik va baxtga olib boradi. Agar ana shunday kurashda aqli sevgi yengib chiqsa, kelajagi porloq va baxtli bo'ladi. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, sevgi obyektiga ega, ya'ni muravvatli kishida aqli sevgi ustun turadi. Oshiqlik emas, balki oshiq-ma'shuqlikkina uning fikricha, inson baxtining negizidir.

Shuni qayd qilish kerakki, Ibn Sino go'yo inson narigi dunyoda erishadigan ilohiy sevgining mavjudligini inkor etmagan. Olimning fikricha, sevgi inson hayotida muhim rol o'ynagan, u inson zimmasiga axloqiy va huquqiy burchlar yuklaydi, ya'ni u sotsial omildir. Mutafakkirning bunday g'oyalari o'z zamonasi uchun progressiv edi.

Ibn Sinoning qarashlarida eng avvalo qadimiy grek falsafaasiga xos bo'lgan turli – tuman yo'nalishlar va yondashishlar qo'shilib ketdi.

12. O'sha joyda, 3-bet.

BUYUK MEROS

Ammo olimning axloq negizida insonning o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan intilish yotadi, uning axloqiy xatti-harakatini amaliy aql bilan belgilaydi va baholaydi degan markaziy islomiy g'oya bilan yo'g'rilgandir. Amaliy aql Ibn Sino uchun kishilarning ezgu va odilona o'zaro munosabatlarining asosidir. Shu bilan birga olim axloqiy ijtimoiy tartibot deb, ya'ni kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish deb idrok etmadi.

Ibn Sinoning axloqiy munosabatlarni aql bilan tartibga solishga da'vati uni islom ruhoniylarining jaholatiga g'ayri insoniyligi va islomning yuqori martabali peshvolarining progressiv g'oyalari unga juda buyuk gumanist sifatida izzat-hurmat va shon-shuhrat keltiradi.

IBN SINO FAOLIYATI XXI ASR UMUM AMALIYOT SHIFOKORINING MUMTOZ MILLIY MODELI

Abu Ali ibn Sinoning hayot yo'li va uning qomusiy olim sifatida shakllanishi Xorazm Ma'mun Akademiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki 999-yilda Qoraxoniylar Buxoroni zabt etib, Somoniylar davlatiga yiqitgandan keyin yosh tabib o'z yurtini tark etib, Xorazmga boradi. O'sha davrda Xorazmshoh Ma'mun Urganchda "Maskani Olimon" (1004-1017) tashkil qilgan bo'lib, unda taniqli olimlardan Abu Nasr Ibn Iroq, Abu Saxl Masixiy, Abu al-xayr Hammor va Abu Rayhon Beruniylar ijod qilar edilar. Ushbu "Maskani Olimon"ga Ibn Sino ham qabul qilinib, unga Xorazmlik hakim Abu Abdullah Notiliy ustozlik qilgan.

Ibn Sino o'zigacha mavjud bo'lgan Sharq tabobatini tartibga solib, uning o'rganilmagan sohalarini o'rgangan, kamchiliklarini to'ldirgan holda tabobat qonuniyatini, amaliy davolash bilan shug'ullanuvchi tabiblar uchun dasturulamal yaratgan. Shu sababli u butun dunyo tabobatining rivojiga katta-katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkirdir. Buyuk alloma xalq tabobatining asosiy qismi bo'lgan dorivor o'simliklarni ishlatish, ulardan oddiy va murakkab dori shakllarini tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalarni "Tib qonunlari" asarining II-V kitoblarida batafsil yoritgan.

Ibn Sinoning buyuk g'oyasi farzandlarni barkamol darajaga yetkazishda ona suti bola uchun nafaqat oziq modda, balki ona suti farzand uchun "Quyosh nuri", mehr-

BUYUK MEROS

muhabbat bulog'i, turli kasalliklardan asrash omili, uning jismonan va ruhan sog'lom o'sishning kafolati deb tavsiya qiladi.

Ibn Sino dunyoda birinchilar qatorida inson va atrof muhitning o'zaro munosabatini, odam tanasi tug'ilishi va organizm xususiyatlarining uni o'ragan atrof-muhitga, iqlimga, milliy urf-odatlar, turmush tarziga bevosita bog'liq ekanligini anglab yetgan.

Buyuk ajdodlarimizning ibratli merosiga tayangan holda, hozirgi zamon sivilizatsiyasi tufayli kelib chiqayotgan turli xildagi zamonaviy kasalliklar (endokrin, allergik, toksik, nurlanish, yurak qon-tomir, onkologik va irsiy) hamda ayrim yomon illatlar (chekish, ichkilikbozlik va giyohvandlik)ni bartaraf etishning aniq chora-tadbirlarini hozirgi kunning dolzarb masalalariga aylandi. Bundan bir necha asr ilgari buyuk ajdodlarimiz yechimini topib, davolashga harakat qilgan vabo kasalligi insonning ixtiyorisiz yuqori va inson unga qarshi qattiq kurash olib borgan bo'lsa, XXI asr vabosi – giyohvandlik illatiga inson o'z xohish-irodasi bilan chalinmoqda.

SamDTU
axborot-resurs markazi

ABU ALI IBN SINONING BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISH G'UYASI

Abu Ali ibn Sino tibbiyot, falsafa, adabiyot sohalarida qalam tebratish bilan birga insonning barkamolligi, uning dunyoqarashi, axloq, qadriyatlar ham yetuk asarlarini yaratdi. Mutafakkir yaratgan "Donishnoma", "Tabobat" haqida ham yetuk fikrlar, mulohazalarini dunyoning hamma qit'alarida bilishadi.

Yosh farzandlar uchun ona suti – mehr bulog'i, go'dak uchun nihoyatda foydali, turli kasalliklardan forig' etuvchi noyob ozuqa ekanligini o'z tajribalarida isbotlab berganligining guvohi bo'lamiz. Bola o'z onasini emishi, emizish uchun mone'lik bo'lgan taqdirda, bola uchun faqat bitta emizuvchi ayol bo'lishi kerakligini, uning xulqi, ko'rinishi, yoshi katta ahamiyatga ega ekanligi manbalarda to'la yoritilgan. Zero, inson bolasi qanday ona sutini qabul qilsa, shunday xulq, fe'l bilan voyaga yetadi. Bu esa har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Bejiz aytilmagan: "Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi", deb.

Ona sutini targ'ib qilishda mehr-muruvvatli tug'ruqxona nomini olgan Toshkent shahar Perinatal markazi, Akusherlik ginekologiya ilmiy tekshirish institutlarida o'tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, bolaga ona ko'kragi qanchalik erta berilsa, shunchalik kasalliklar soni kamayishi kuzatilmoqda.

Ibn Sinoning "Tadbir al-marzi" asari fors tiliga tarjima qilingan va 1930-yili Tehronda chop etilgan.

Asarda mutafakkir uy va oilaga oid masalalarni yoritgan.

BUYUK MEROS

Bunda er-xotinning munosabatlari, bir-birlarini hurmat qilishlarining bolalar tarbiyasidagi muhim roli, ayollarning oila va jamiyatdagi ahamiyati to'g'risida ilmiy xulosalarni yoritgan.

Olim ayollarning oqilaligini ulug'laydi va bolalar tarbiyasidagi muhim rolini ko'rsatib beradi. Bolalar tarbiyasida mutafakkir quyidagilarga e'tibor berish lozimligini tavsiya etadi:

Bolalaringizni diqqat-e'tibor bilan tarbiya qiling, fazilatli, odobli va go'zal axloqli bo'lishiga o'rgating, xulqlarini go'zallashtiring, bolalaringiz ko'p bo'lsa, ularning yig'laganlari, sho'xlik qilganliklari uchun achchiqlanmang, kulib, erkalatib, nasihat qilib shodlik bilan tarbiyalang, bolalarni issiq suv bilan tez-tez cho'miltiring, so'ngra yaxshilab arting, qavatma-qavat narsalar bilan o'ramang, tor kiyimlar qiydirmang, ular bolaning sog'lom o'sishiga ta'sir qiladi. Hech vaqt ovqatni o'zingiz chaynab yedirmang, bolani emizgan vaqtingizda sutingiz buzulmasligi uchun piyoz, sarimsoq kabi narsalarni iste'mol qilishdan saqlaning. Doya bola ko'zlarini ipakli mato bilan hamisha artib turmog'i, yo'rgaklashdan oldin badanini silamog'i darkor deb ta'kidlagan. Cho'miltirish uchun eng yaxshi vaqt bolaning uzoq uxlagandan keyingi vaqtidir. Yoz kunlari o'rtacha issiq suv bilan cho'miltiring, foydali.

Abu Ali ibn Sino yetuk olim L.Pasterdan 8 asr oldin yuqumli kasalliklarning avlod uchun zararli ekanligini ta'kidladi.

Yaxshilik va yomonlik, lazzat va alam haqidagi fikrlar ulug' olimning dunyoqarashida muhim o'rin egallaydi. U

yaxshilik va lazzatning ikki shaklini ko'rsatadi:

- 1) Quyi shakli – bu hissiy lazzatlanish;
- 2) Oliy shakli ma'naviy lazzatlanishdir.

Abu Ali ibn Sino yoshlar ichki dunyosining rivojlanishini bandagicha tasvirlab bergan. Bularga sezgi hissiyotlari (shirin taomni yoqtirish, go'zal tabiatdan rohatlanish va h.k.), barkamol insonlar uchun eng yaxshi xislatlar (kamtarlik, mehnatsevarlik va h.k.).

Ibn Sinoning asarlarida insonning hayvonlardan farqli xususiyati, muhabbati va do'stlik masalasi ham asosiy o'rinni egallaydi. Do'stlikning yaxshi natijasi mustahkam muhabbatni paydo qiladi. Inson muhabbati bu – jismoniy va axloqiy hissiyotlarning yaqinlashishidan paydo bo'ladi.

Olimning Sharq mutafakkirlari ichidagi yuqori insoniy xislatlar, kamtarlik, sharqona fikrlilik, donoligi, mehnatsevarligi bilan yoshlarimizga o'rnak bo'ladi.

Bundan necha asrlar ilgari buyuk ajdodlarimiz yechimini topib, davolashga harakat qilgan vabo kasalligi insonning ixtiyorisiz yuqori va inson unga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, XXI asr vabosi – giyohvandlik illatiga o'z xohish irodasi bilan chalinmoqda.

Ushbu holatni ongli ravishda tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

– Kelajak avlod, farzandlarimizning farovon hayot kechirishlari uchun ularda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini eng yoshlik chog'idan boshlab singdirib borishimiz, yomon illatlarga qarshi kurashda faollikni oshirishimiz, jamiyatning poydevori bo'lmish yoshlarni har tomonlama asrab-avaylashimiz, bu borada ajdodlar

BUYUK MEROS

merosidan, o'gitlaridan o'mak sifatida muntazam ravishda va o'rinli foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, jamiyatni insonlar yaratadi. shu jamiyatda istiqomat qiluvchi millat, aholi, asosan, yoshlar sog'lom, yetuk va barkamol bo'lsagina. bunday jamiyat ham gurkirab taraqqiy etadi.

Tarix saboqlaridan ma'lumki, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, bu borada ajdodlar merosining eng ajoyib tomonlarini inobatga olish har tomonlama sog'lom, ma'naviyati yuqori va kuchli jamiyat barpo etishning asosini tashkil etadi.

Umumjahon sivilizatsiyasining insoniyat uchun yaratilayotgan ne'matlaridan oqilona foydalanib, yomon illatlardan kelajak avlodni xalos etish barchamizning, asosan, sog'liqni saqlash xodimlarining fuqarolik burchidir.

O'rta Osiyo eng qadimgi madaniyat, ma'rifat o'choqlaridan biridir. X-XI asrlarda bu yerda Buxoro, Samarqand, Balx, Gurganch madaniyat markazlari bo'lgan. Butun dunyoga mashhur bo'lgan O'rta osiyolik buyuk namoyondalari har jihatdan rivojlantirib mazkur shaharlarda yashab, yoki avlodlarga ta'lim berganlar.

Abu Ali ibn Sinoning "Qonun fit-tib" asari necha yuz yillar mobaynida G'arb va Sharq olim va hakimlari uchun dasturulamal bo'lib keldi.

Ibn Sinoning yoshlarni mehnat qilish, uxlash, jismoniy mashqlar qilib turish to'g'risidagi o'z asarlarida aytib o'tgan o'gitlari hozirgi zamon tibbiyotlarida ham ilg'or hisoblanadi.

Ibn Sino bolani go'daklikdan boshlab gigiyenik jihatdan

to'g'ri tarbiyalab borishni (kindik gigiyenasiga amal qilish, bolani cho'miltirib turish, shapalatib massaj qilish, ko'krak berib emizish) ya'ni hozir ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan va bolalar o'rtasida kasallik va o'limni kamaytirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan omillarni sog'liqni saqlashning asosiy amaliy ishi deb hisoblaydi.

Olim bolani emizishiga ona ko'kragini tayyorlash va sutning birinchi amalini sog'ib tashlash shundan keyin esa bolani emizish kerak deb maslahat beradi. U bolani emizishidan avval onasi yoki enagasining albatta yaxshi ovqatlanib olishiga alohida e'tibor berish lozimligini uqtirgan.

Bolani ochiq havoda uzoq o'ynatish, 6 yoshdan boshlab asta-sekin o'qishga rag'bat uyg'otib borish va ayni davrda jismoniy mashqlarni ko'proq qildirib turishga buyuk hakim ko'p ahamiyat bergan.

SOG‘LOM FARZAND – SOG‘LOM KELAJAK

“Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 40-moddasi.

Xalqimiz bolajon. Istiqlol tufayli ushbu fazilat davlat miqyosiga ko‘tarildi.

Prezidentimizning: – “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va alabatta baxtli bo‘lishlari shart!” – degan qanoatbaxsh so‘zlari millatimiz shioriga aylandi. Bugan hamda ertani ko‘zlab qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlar mazmun-mohiyati ham avvalo yosh avlod kamolotiga qaratilgan.

Farzandlarimiz baxt-saodati yo‘lida ulkan ishlar samarasi sifatida ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Mustaqil yurtimizning birinchi ordeni bu – “Sog‘lom avlod uchun” ordenidir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har bir yilning “Oila yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Onalar va bolalar yili”, “Homiylar va shifokorlar yili”, “Ijtimoiy himoya yili”, “Inson qadri va sifatli ta‘lim yili” kabi muayyan nomlar bilan atalmish ham farzandlarimizga, ularning barkamol avlod sifatida voyaga yetishlariga bo‘lgan ulkan e‘tibor va g‘amxo‘rlikning yaqqol ifodasidir.

Qolaversa, o‘tgan yillar mobaynida “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan dasturlar asosida keng ko‘lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi natijasida skrining hamda perinatal kabi yangi tibbiy markazlar va ularning viloyatlardagi firmalari milliy tibbiyotimizdan mustahkam o‘rin egalladi. Yangi

O'zbekiston sharoitida ixtisoslashtirilgan Akusherlik va ginekologiya hamda Pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Samarqand Davlat tibbiyot Universitet ularning joylardagi filiallari, shuningdek, hududiy ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot muassasalari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti, BMTning Bolalar jamg'armasi – Yunisef, Aholishunoslik jamg'armasi-Yunfka, Germaniyaning KFW banki Giz xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya jamiyatining ekspertlari yaqindan yordam bermoqdalar.

Yangi O'zbekiston sharofati bilan mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Binobarin, davlatimiz inson huquqlari, xususan, bola huquqlariga oid ko'plab xalqaro bitimlarni imzoladi.

Eng muhimi, ushbu yo'nalishning davlat siyosati darajasida ekanligi boshqa mamlakatlar uchun ibrat bo'la oladi.

Prezidentimizning “2014-2018-yillarda O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'ligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'ligini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to'g'risida”gi qarori asosida bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Bu bilan mamlakatimiz aholisining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida tibbiy yordam ko'rsatayotgan muassasalarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyotini kuchaytirish, zamonaviy tashxis usullarini joriy

BUYUK MEROS

etish, ayollar, bolalar va o'smirlar kasalliklarining oldini olish borasida 2030-yilga mo'ljallangan strategik rejalar dolzarb vazifalarni va maqsadlarni belgilagan.

Sharq uyg'onish davrining birinchi Renessans qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino aql-u tafakkuri va bebaho asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan. Tug'ma iste'dodga ega bo'lgan bobokalonimiz o'z davrida "Tabiblar podshohi", "Tib ilmining sultoni", "Shayx ur-rais" nomlariga sazovor bo'lgan bo'lsa, Yevropada esa u Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan.

Ibn Sino o'zidan oldingi tibbiyot olimlari, tabiblar tomonidan yaratilgan tibbiyotga oid bilimlarni o'rganib, kasalliklar sabablarini aniqlash, tashxis qo'yish, kasallikning oldini olish va davolash haqidagi bebaho asarlarni meros qilib qoldirgan.

"Aql tarosizida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir".

Ibn Sino

ABU ALI IBN SINO YOZGAN

ASARINING AHAMIYATI

Hayotda teran tafakkurga, yuksak iste'dodga, keng dunyoqarashga, kelajakka eltuvchi donishmandlikka ega bo'lgan insonlar O'rta Osiyoda o'sha davrda va hozirgi kunda ham buyukdirlar. Bunday insonlar taqdir yo'llaridagi hech bir to'siqlardan, mashaqqatlardan, yovuzliklardan qo'qmasdan o'zlarini ilm-fanga baxshida qilganlar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, – "Toifadan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda ayni millat fidoyilari, uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"¹³.

13. Sh.M.Mirziyoyev. *Respublika ma'naviyat va ma'rifat, san'at va adabiyot sohasining kengashidagi ma'ruzasi/ "Xalq so'zi" 23-dekabr.*

BUYUK MEROS

BUYUK MEROS VA ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA

*Qora yer qaridan to avji Zuhal
Koinot mushkulin barin qildim hal.
Barcha tugunni angladim,
Yechilmay qolgani birgina Ajal.*

Ibn SINO

Ibn Sinoning ushbu ruboiylar orqali Tangri yaratgan inson deb atalmish ulug' zot hayotining har bir soniyasigacha qadriga, etishini, adolat, haqiqat, ezgulik, muhabbat, saodat, diyonat kabi insoniy fazilatlardan yiroq bo'lmaslikka undaydi.

Buyuk alloma iste'dodli tabib, mutafakkir Ibn Sinodan qolgan boy meros ko'p asrlar dunyodagi turli mamlakatlar mutaxassislari e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Ilmiy manbalarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asarlar yaratilganligi qayd etilgan holda ularning 242 tasi haqidagina ma'lumotlar keltiriladi. Olim asarlarining bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalari Istanbul, Isfaxan, Tehron, Qohira, Bayrut, Dehli, Kalkutta, Berlin, London, Sankt-Peterburg, Toshkent, Dushanbe, Yevropa va boshqa davlatlarda saqlanmoqda.

Markaziy Osiyoda ilm-fanning eng rivojlangan davri X-XII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davr tarixchilar iborasi bilan aytganda "Uyg'onish davri" deb ataladi.

Darhaqiqat, bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ya'ni feodal tizimning tinch rivojlanib borishi (Somoniyklar

hukmronligi davrida) o'lkada ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga zamin yaratdi. Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pgina eng yaxshi farzandlari, jumladan, Al-Xorazmiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Firdavsiy kabi buyuk allomalar o'sha davrda samarali faoliyat ko'rsatib, jahon fani va madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shdilar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, "ulkan ma'naviy jasorat sohiblari bo'lgan bunday alloma zotlar dunyoning qayerida yashamasin, ezgulik va ma'rifat yo'lida doimo odamlarga ibrat bo'lib kelganlar". Shunday ulug' zotlardan yana biri mashhur qomusiy olim Abu Ali ibn Sinodir.

Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037) kelgusi avlodlarga qimmatli meros qoldirib ketdi. Hisoblar bo'yicha, u qoldirgan ilmiy meros fanning 12 sohasini o'ziga qamrab olgan. Ular orasida falsafa, tabobat, ilohiyot, mantiq, psixologiya, astronomiya, kimyo, fizika, adabiyot va boshqalar bor. Turli yozma manbalarda olimning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan. Ammo bizgacha uning 242 tasi yetib kelgan. Olimning asarlari orasida "Tib qonunlari", "Shifo kitobi", "Najot kitobi", "Bilimlar kitobi" va boshqalar alohida e'tiborga loyiqdir. Ibn Sinoning hayoti va ijodi, u qoldirgan ulkan meros nafaqat mamlakatimiz, balki boshqa xalqlar uchun ham yetuk kadrlar tayyorlashda katta maktab bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik xalqimiz tarixi, buyuk vatandoshlarimizning merosini chuqurroq o'rganish uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. Ulug' allomaning hayot yo'li va ijodini yanada

BUYUK MEROS

kengroq o'rganish yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, olimlar, malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari ushbu masalaga jiddiy e'tibor bilan qaramoqda.

Ibn Sino yoshligidanoq o'z davri fanlarini, diniy manbalarni, bir necha tillarni chuqur egallab oldi, 16-17 yoshidayoq mashhur tabib bo'lib tanildi.

Ibn Sino, eng avvalo, Abu Nasr Forobiy, G'arb va qadimgi Grek falsafiy an'alarini chuqur o'zlashtirib, rivojlantirdi, o'z ijtimoiy ta'limotida buyuk insonparvar, vatanparvar va adolatparvar olim sifatida tanildi.

Ulug' allomadagi ushbu ibratli g'oyalarni targ'ib qilish va ular bilan yoshlarni yaqinroq tanishtirish, kadrlar tayyorlash dasturini bajarishda institutimiz o'qituvchi-professorlari uchun eng ustuvor vazifalardan biridir.

Biz malakali kadrlar tayyorlashda yoshlarimizda bu ulug' zot bilan faxrlanish hissini uyg'otish bilan birga, klinik ordinatorlar orasida iqtidorli yoshlarni topish, ularni qo'llab-quvvatlash, buyuk alloma vorislari qilib tarbiyalashimiz muhim vazifalardan biridir.

Ibn Sino boy ijodiy merosning hali o'rganilmagan qirralari ko'p. U yozib qoldirgan asarlarini chuqur o'rganish, tibbiyot oldida turgan muammolarni hal qilishda, bilimlarimizni boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa shuki, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotgan bir paytda yosh avlod ham o'zining barcha kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ajdodlarimizdan

qolgan boy va muqaddas ma'naviyatimizni avaylab–asrashi, ularni qadrlashi lozim.

Abu Ali ibn Sino o'z umrini inson salomatligi me'yorini o'rganishga bag'ishladi desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Uning asosiy tadqiqot obyekti salomatlik va bemorlik me'yorlarini o'rganish bo'lgan. Ibn Sino nuqtai nazarida, sifat miqdordan ayrilgan emas. Xuddi shuningdek, sifat va miqdorning yagonaligi va yaxlitligi, bir-birini taqozo etishi aslo ularning bir-biriga qo'shib ketganini bildirmaydi. Ibn Sinoning yutug'i shundaki, sifat va miqdor belgilalarini farqlay oldi. Shu sababli ham, "Miqdor kasalliklari"ni "sifat kasalliklari"dan ajratib ko'rsatdi.

"Miqdor kasallik"lari kattalashishi yoxud kichrayish, kamayish bilan farqlanadi. "Uzluksizlikning buzilishi tufayli vujudga keladigan kasallik"lar mavjudligiga e'tibor berdi. O'zining "Donishnoma" asarida "Miqdorning ikki xil: birinchisi: "uzluksizlik" arab tilida ifodalanganda "muttasil". Ikkinchisi: uzlukli, arab tilida "munfasil" deb ifodalanadi. Borliqdagi barcha narsa, predmet va jarayonda miqdor va sifat ajralmas, yagonalikda namoyon bo'ladi. Ibn Sino asarida "mizoj"-aniq sifat, tabiiy me'yor ma'nosini anglatadi. "Unsurlar o'z vaqtlari bilan bir-birlariga ta'sir qilishlari natijasida ularning hammasiga mos bir kayfiyat (aniq, yaxshi sifat) vujudga keladi. Ana shu kayfiyat mizojdir". Gap to'rt xil sifatli unsurlarning bir-biriga mutanosib miqdorlar orqali mosligi haqida borayotganligini anglash unchalik qiyin emas. Qon, safro, savdo va limfa suyuqligi har bir organizm uchun muayyan miqdorda "xos adad"da bo'ladi; Ushbu to'rt suyuqlik muayyan miqdorda bir-biri bilan mutanosiblik o'lchovlarida yagonalik–me'yorni

BUYUK MEROS

tashkil etadi. Bu holatda salomatlik me'yori mustaqil to'rt me'yorning munosabati shaklida namoyon bo'ladi. Abu Mansur al-Qumri ham o'z ustozini Ibn Sinoning bu boradagi fikrini tasdiqlab shunday deydi: "Inson tanasining e'tidodli holatida bu qarama-qarshi to'rt sifat ma'lum bir chegarada to'xtagan bo'ladi".

Mizoj mo'tadil va mo'tadillikdan chiqqan holatda bo'lishi mumkin. Mizoj mo'tadil bo'lsa, kishining tanasi sog'lom, mo'tadillikdan chiqsa, kasallik paydo bo'ladi.

Inson uchun eng yaxshi holat mizojning mo'tadil bo'lishidir. "Mizoj" mo'tadil bo'lganida gavdadagi qarama-qarshi xususiyatlar miqdor jihatidan o'rtacha va sifat jihatidan nuqsonsiz bo'ladi. Bunday kishi sog'lomdir. Agar qarama-qarshi xususiyatlar o'rtacha bo'lmay, ikki tomonning biriga, masalan, issiqlik yoki sovuqlikka, ho'llik yoki quruqlikka yoki har ikkisiga moyil bo'lsa, mizoj mo'tadillikdan chiqadi va tanada kasallik paydo bo'ladi.

Ibn Sino ko'rsatishicha, har bir tirik mavjudotning o'z turiga mos tabiiy me'yori bo'ladi. Eng mo'tadil mizojga ega bo'lgan mavjudot insondir. Uning katta yutug'i shundan iborat bo'ldiki, mizoj haqidagi konsepsiyasini umumiylikdan alohidalikka, so'ng individuallikka olib, inson tanasi misolida ko'rsata olganidir. Har bir odamning o'ziga xos (individual) mizoji bo'ladi deb ta'kidlaydi alloma.

Inson salomatlik me'yorlaridan biri qondagi xolesterin miqdori, agar xolesterin miqdori 120-180 MB (meditsina birligi) bo'lsa, bu salomatlik me'yoridir. 200 meditsina ko'rsatkichidan oshishi esa arteriya qon tomirlarining ifloslanganidan dalolat beradi. Qon tomirlarida to'planib

borayotgan xolesterin miqdori qondagi xolesterin miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Inson tanasi qonidagi qand miqdori, qon bosimi, tanadagi yog' miqdori va qondagi glitserin miqdorlari bu ko'rsatkichlari barchasi salomatlikni ko'rsatuvchi ichki tabiiy me'yorlardir. Aynan mana shu ko'rsatkichlar o'z me'yorlarida bo'lganda inson salomat bo'la oladi.

Mutaxassislar fikricha, Ibn Sinoning mashhur tibbiy dostoni "Al-Urjuza fit-tibb"ning yagona nusxasi Hindiston xazinadonidan o'rin olgan.

Olimning bu yerda saqlanayotgan yana bir she'riy asari "Al-Urjuza fil-mujarratob"da uning o'z tajribasida sinab ko'rgan dori-darmonlari bayon etilgan bo'lib, qo'lyozma nusxasi XIX asrda ko'chirilgan.

Ma'lumki, Beruniyning dorishunoslikka bag'ishlangan "Kitob as-Saydano, Fit-tib ("Tibbiyot"da Saydana haqida kitob)" asari O'rta Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning giyohlarning tafsifini to'la ochib bergan. Ayni paytda o'sha kitob Ibn Sinoning ilmiy izlanishlarida beqiyos rol o'ynagan. Ibn Sino asarni mukammal o'rgangach, o'zining shoh asari bo'lmish "Tib qonunlari"ni Xorazmda yoza boshlashiga muhim ilmiy manba bo'lgan bo'lsa ajab emas. Bu haqda "Tib qonunlari"ning 1954-yildagi ruscha nashriga so'zboshi yozgan B.D.Petrov ham to'xtalib, Ibn Sinoda ushbu asarni yozishda Xorazmda qulay sharoit bor edi degan fikrlarni yozgan.

Dunyoga mashhur sharqshunoslardan A.K.Aryande, M.Sale kabi olimlar "Tib qonunlari"ning yigirma yil davomida yozilganini qayd etishgan. Ular fikricha, Ibn

BUYUK MEROS

Sinoga Xorazmda yaratilgan sharoit. Beruniy va boshqa yetuk olimlar—u tabiblar bilan fikr almashuvlar, muloqotlar asarning aynan Xorazmda yozib boshlangan deyilishiga asos bo'la oladi.

Ayniqsa, allomaning shoh asari bo'lgan "Kitob al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari shu kungacha tibbiyot istiqboliga xizmat qilayotgan qomusiy asar hisoblanadi. Ibn Sino ushbu asarini besh qismdan iborat qilib yozgan. Natijada asar besh mustaqil kitobdan tarkib topgan. Har bir kitob o'z navbatida qismga, bo'limga, maqolalarga ajratiladi.

Asar boshlanishida umumiy va falsafiy mulohazalardan so'ng mukammal ravishda odam anatomiyasi bayon qilinadi. Shuningdek, kasalliklarni aniqlash usullari, tashxis qo'yish davolash va kasalliklarning oldini olish masalalariga mufassal to'xtaladi. Ayniqsa, kasalliklarning belgilari, sog'liqni saqlash yo'llari mazmundor aniqligi bilan kitobxonni taajjubda qoldiradi.

Shuningdek, odam salomatligini qanday saqlash kerakligi haqidagi ta'limot ham bayon etiladi. Aniqrog'i, Ibn Sino tibbiyotning bu masalalariga izchil yondashishini, hozirgi zamon gigiyenasi va ichki kasalliklarni o'rganuvchi propedevtika darsligi bilan taqqoslash mumkin.

Muallif kasalliklarning oldini olish borasida badan tarbiyaning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tadi va jismoniy mehnat, yugurish, kurash, chavandozlik, cho'milish, suvda suzish, hatto merganlik va boshqa sport o'yinlari bilan shug'ullanishni tavsiya qiladi. Bularning hammasi odam tanasining har xil kasalliklarga qarshi kurashini, chiniqishini

ifodalab beradi.

Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'sha davr tushunchasiga asoslanib, odam tanasidagi 4 xil suyuqlikka (qon, safro, o't va qora o't) va bu suyuqliklarning o'zaro muvozanatiga bog'laydi.

Kitob oxirida inson turmush tarzi, ovqatlanish, parhez saqlash haqida, hamda, odam yoshiga qarab o'zini qanday boshqarish, nimalarga e'tibor berish to'g'risida batafsil to'xtaladi va kitobni kasalliklarning maxsus klassifikatsiyaga ajratish bilan yakunlaydi.

“Tib qonunlari”ning ikkinchi kitobi, asosan, dorishunoslikka bag'ishlangan. Kitobda 800 ga yaqin dorilarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va qanday qilib qachon iste'mol qilish usullari bayon etilgan. Bu borada o'simliklardan, hayvonlardan, minerallardan olib tayyorlangan dorilarning ta'sir doirasi qanday kechishini, a'zolarga qanday ta'sir qilishi va badandan qanday chiqishini ham yozgan.

Kitobning mohiyati shundaki, Ibn Sino tajribalaridan o'tib kasallarga ishlatgan dorilar hozirgi kunda ham farmatsevtikada keng qo'llaniladi va yaxshigina samarasini berib kelmoqda. Alloma asarining bu kitobiga shunday xulosa qiladi:

“Imkoni boricha dori ichishga odatlanmang, dori ichish holatiga tushushning oldini olish chorasini ko'rishga odatlaning”.

“Tib qonunlari”ning uchinchi kitobi tanadagi ayrim a'zolar kasalligi va davolash usullariga bag'ishlangan. Kitob 22 qismdan iborat bo'lib, har bir qismning boshida

BUYUK MEROS

ayrim a'zoning anatomiyasi va fiziologiyasi, hatto patologik holat haqida ma'lumot beradi.

“Tib qonunlari”ning to‘rtinchi kitobi isitmalar, shishlar, yuzdagi toshmalar, yaralar, jarrohlik kasalliklari va shikastlanishlari, suyak sinishi, chiqishi hamda asab tolalarining, kalla suyagi, ko‘krak qafasi, umurtqa pog‘onasi, qo‘l, oyoqlar jarohatlarini qanday aniqlash va davolash to‘g‘risida yoziladi.

Ibn Sino yuqumli kasalliklar kelib chiqishida, uni tarqatuvchi ko‘zga ko‘rinmas (mikroblar va bakteriyalar) borligini e‘tirof etgan.

Allomaning yana bir yuqumli kasallik, ya‘ni “Rishta” kasalligi haqida yozgan ma‘lumotlari e‘tiborga loyiqdir. Ibn Sino esa Rishta kasalligini Rishta qurti tanaga kirib paydo qiladi deb o‘zigacha bo‘lgan davrda tabiblar qo‘ygan tashxislarni rad etgan. Olimning bu fikrini Buxoroda bizning davrimizda, professor L.M.Isayev aniqlagan va tasdiqlagan.

“Tib qonunlari”ning yana bir maxsus bo‘limi tana go‘zalligini, barqarorligini qanday asrash, parvarish qilish, tashqi ta‘sir qiluvchi har xil faktorlardan teriga, ayniqsa, yuz terisiga salbiy ta‘sir qilishi haqida maslahatlar bergan.

“Tib qonunlari” kitobining beshinchi kitobi farmakopiyaga bag‘ishlangan. Farmakopiya farmatsevtikaning muhim qismi bo‘lib, dorilarni qanday tayyorlash, ularning ta‘sir doirasini taxmin qilish, tekshirish, ularni saqlash, qanday qilib ishlatish, foydalanish haqida majburiy qonun-qoidalarni yaratdi.

Haqiqatdan, Abu Ali ibn Sino o‘zining shoh asari bo‘lmish “Tib qonunlari” asari o‘z ijodi, ilmiy faoliyati,

umuman olganda, aql-idrokining tantanasi uchun bor imkoniyatini ayamagan. Shu boisdan alloma Osiyo, yaqin va uzoq sharq mamlakatlaridagi ma'rifat, yuqori g'oyaviy ko'tarinkilik, madaniy uyg'onishning ma'naviy yutaqlurini ko'rsata bildi. Bu kitob avval qo'lyozma shaklida, keyin alloma vafotidan 100 yil o'tgandan so'ng g'arbda ham paydo bo'ldi. XII-XIII asrlarda u birnecha tillarga tarjima qilindi. Hattoki, XV asrda Yevropada bosma nashri tashkil qilingandan so'ng birinchi kitob "Tib qonunlari" bo'lgan.

Xorazmdalik paytida "Tib qonunlari"ni yozishni to'liq tugatmasdan, "Kitob ash-shifoni"dek yana bir katta ahamiyatga ega bo'lgan asarni boshlaydi. Alloma bu asarni yozishda oldingi asarlardagi kabi qo'lyozmalardan, manbalardan foydalanmasdan, faqat xotirasiga asoslangan.

Ya'ni o'tkazgan tajribalari asosida har kuni 50 varoqdan yozib borgan. "Kitob ash-shifo"da faqat tibbiyotgagina emas, botanika, fizika, matematika sohalariga bog'langan qismlarini tugatmaguncha yozishni to'xtatmagan. Bu asarida tog'larning vujudga kelishi, yer yuzasining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi jarayonlar haqida fikrlari, keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, "Kitob ash-shifo"ning muhim bir qismini mantiq ilmiga bag'ishlaydi. Ma'lumki, mantiq to'g'ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fandır.

Falsafa tarixidan ma'lumki, o'z davrida al-Farobiy "Hech nima inson tafakkuridek erkin bo'la olmasdi", – degan edi. Arastudan keyin "ikkinchi muallim" degan dovruq

BUYUK MEROS

taratgan Farobiyning bu fikrini Ibn Sino quvvatlagan holda yanada oydinlik kiritgan va asarida: "Zaruriyat insonlarning dilidagilarni boshqalarga bildirishga undaydi va o'z navbatida boshqalar dilidagilarni o'rganishga ham undaydi. Insoniyatning yashashi uchun odamlarning o'zaro ma'naviyatini boyitish va tushunish muhimdir. Zaruriyat inson tafakkurini o'tkirlaydi", – degan xulosaga keladi.

Shuning uchun ham Firdavsiy, Maarri, Tauxidiy, Bolaso g'uniy hamda Bayxaniy kabi allomalar "Kitob ash-shifo"ni umrboqiy asar deya ardoqlashgan. Umar Xayyom esa doimo, bu asarni yonida olib yurgan. Hatto o'lim to'shagida yotgan paytida ham ularni o'qiyotib jon bergan ekan.

Ibn Sino biologik ritmning (mo'tadillik) o'zgarishi inson tanasida, a'zolarida, to'qimalarida, ayniqsa, yurakning qon tomir faoliyatida o'z aksini puls (arteriya qon tomirlari urushi) o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi deb ta'kidlagan.

Aynan Ibn Sino o'z bemorining holatini kuzatarkan, pulsning 48 turining o'n xil jarayonda o'zgarishini aniqlab bilgan. Rus olimi B.Petrov 1980-yilda nashr etilgan "Ibn Sino" nomli kitobida yozishicha, hozirgi kunda sinusli aritmiya (ritmning buzilishi) allomaning puls to'g'risida bayon qilgan kuzatishlariga asoslangan.

Ibn Sino yana bir qiziqarli mulohazani oldinga surgan. Ya'ni u biron kasallikning qo'zg'ashi yoki boshqa bir kasallikdan xalos bo'lishiga zamin yaratadi degan. B.Petrov "Ibn Sino" nomli asarida 1927–yilda Nobel mukofotini olishga muvafaq bo'lgan. Y. Vagner-Yaureg aynan buni o'z tajribasida Ibn Sino aytganidek qo'llaganini yozgandi.

"Tib qonunlari"da bu jarayon: "to'rt kunlik isitma, ba'zi

bir yomon sifatli hujayralarning nobud bo'lishiga hamda parishonxotirlik yoki biron illatlarning yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin" deya izohlanadi.

Ibn Sinoning fikricha, xotira, fikrlash, ko'rish, uyqu, sezish, qo'l-oyoq harakati bosh miyada joylashgan qismlar, ya'ni markazlarga bog'liqdir. Engsyo sohasida bosh miya lat yesa, xotirani yo'qotadi, o'rta qism jarohatlansa fikrlash qobiliyati yo'qoladi, peshona sohasi shikastlansa, anglash yo'qoladi. "Tib qonunlari" da ifodalanishicha, yuqorida qayd qilingan alomatlar bemorda ruhiy kasalliklar, aql-idrok pasayishiga va melanxolikka zamin bo'ladi. (Melanxoliya – yunon tilida qora safro – melan – qora, xol – safro ma'nosini anglatadi). Bu atama XIX asrda bemorning asabiylashishi, ruhan tushkunlikka tushish holatini ifodalagan.

Yangi O'zbekistonning porloq kelajagini ta'minlash uchun teran fikrli, ham jismonan, ham ma'naviy, ham sog'liq jihatidan yetuk va barkamol avlodni voyaga yetkazish davr talabidir.

Insoniyattarixidan ma'lumki, sog'lom jamiyatni faqatgina har tomonlama teran fikrli, sog'lom fuqarolar yarata oladilar. Ana shunday iqtidorli yoshlarni shakllantirishda esa sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yoshlik chog'idan boshlab insonlar ongiga singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan o'n asr muqaddam, buyuk qomusiy olim, yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino "Salomatlikni saqlashning asosiy mahorati inson hayoti uchun muhim bo'lgan umumiy omillar mo'tadilligini ta'minlashdan iboratdir" degan edi.

O'tgan 2023-yil mamlakatimiz hayotida yorqin iz

qoldirdi. Ya'ni barcha sohada ko'plab yangiliklar amalga oshirildi va shunga mos holda salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimidagi yutuqlarimiz misolida ham buni ko'rish mumkin. Odatda, odamlar milliy tibbiyotning, tibbiy oliy ta'limning darajasiga qarab baho beradi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 30-yillgacha birlamchi bo'g'in isloh qilindi, vrachlik punktlari o'miga oilaviy shifokor punktlari tashkil etilib, ishlaydigan shifokor xodimlarning me'yorlari qayta ko'rib chiqildi. Agar 2021-yilda birlamchi tizimida 858 ta oilaviy shifokor punkti bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib yana 100 tasi qo'shildi. Natijada umumiy amaliyot shifokoriga 3 ming 200 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, oilaviy shifokor ish yuklamasi 2 ming nafarga tushirildi. Oilaviy shifokor tor doiradagi mutaxassislarning bepul konsultatsiyasi va shifoxonada davolanish uchun yo'llanma hamda bepul dori vositalarini olishga retsept yozib berish kabi vakolatlarga ega bo'ladi. Qo'shimchasiga aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatuvchi 14 mingdan ziyod tibbiyot brigadalar tuzildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan 2021-yil 15-iyundan birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun biriktirilgan aholi jon boshiga ajratilgan mablag' miqdori o'rtacha 3 baravar oshirildi.

Shu bilan birga, kasalliklarnigina emas, ularning xavf

omillarini aniqlash va bartaraf qilish uchun ommaviy xatlov o'tkazildi. Ilgari bitta patronaj hamshiraga 2 ming aholi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozir 750 nafar.

40 yoshdan oshgan viloyat aholisining 91,2 foizi skrining tekshiruvlaridan o'tkazildi.

Yangi maqsadli patronaj tizimida ommaviy profilaktik ko'riklar o'rniga onkolog, ginekolog va boshqa tor soha mutaxassisleri tomonidan maqsadli tibbiy ko'riklar joriy qilindi.

Mustaqil ravishda tibbiyot muassasalariga kela olmaydigan bemorlar doimiy kuzatuvga olindi va ular xonadonlarida davriy maqsadli skrining tekshiruvlaridan o'tkazilib, muayyan kasalliklari bo'yicha tor soha mutaxassisleri tomonidan sog'lomlashtirilyapti.

Davlat rahbarining Yangi yil bayrami munosabati bilan aholi, maktab, bog'cha va shifoxonalar ko'payishini istaydi. Farzandlar kamolini o'ylaydi. Ushbu talablar inobatga olingan holda, yurtimizda olib borilayotgan davlat siyosati markaziga ham inson va uning manfaatini ta'minlash, sifatli ta'lim berish kabi ustuvor vazifalar turibdi.

Jumladan, 2023-yilda tibbiyot oliygohlarida ta'limni xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish, yangi o'quv maskanlari qurilish va mavjudlarini talabalar sonidan kelib chiqib kengaytirish. Bulardan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni sifatli ta'lim bilan qamrab olishgina emas, ularning sog'ligini asrash, barkamol bo'lib voyaga yetishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, aholining malakasi va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada

kengaytirish masalasiga alohida urg'u berildi. Bu borada, ayniqsa, bepul tez tibbiy yordamning kafolatlanishi, sohaga ajratilayotgan mablag'lar har bir bemorga yetib borishi uchun davlat tibbiy sug'urtasiga o'tish yo'nalishidagi ishlarni tezlashtirishi zarurligi davr talabidan kelib chiqib, bu xalqimizning ko'nglidagi gap bo'ldi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining har yo'nalishi xalqimiz hayoti bilan uzviy bog'liq ekanligi bilan yanada ahamiyatlidir. Ayniqsa, aholining to'g'ri ovqatlanishi va sog'lom turmush tarziga amal qilishini ta'minlash borasida aytilgan so'zlar va maqsadli rejalar buning yorqin dalilidir. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan mazkur tashabbus yurtdoshlarimiz sog'ligini asrash muhim hisoblangan umummilliy harakat sifatida har bir mahallada, oliygohlarda targ'ib qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Xususan, 2023-yilda yurtimizda qo'shimcha 140 oilaviy shifokorlik punkti va poliklinika, 520 ta olis va chekka mahallada ixcham tibbiy punktlar tashkil etilishi, onalar va bolalar salomatligi muhofazasi bo'yicha uch yillik dastur qabul qilinishi, barcha tug'riq komplekslari to'liq ta'mirlanib, jihozlanishi, o'rinlar soni 35 foizga ko'paytirilishi, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida davlat xususiy sheriklik asosida radiologiya markazlarini tashkil qilish loyihalari amalga oshirilishi kabi ustuvor vazifalar belgilanishi tibbiyotchilar va xalqimizni mamnun etdi¹⁴.

14. Aholini malakali tibbiyotdan foydalanish imkoniyati kengayadi.
"Xalq so'zi" 2022-y. 21-dekabr.

Tez tibbiy yordam xizmati tibbiyotning yana bir muhim bo'g'ini. Keyingi yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi tarkibidagi bu xizmatda bitta chaqiriqqa dori-darmon uchun beriladigan mablag' 500 so'mdan 6500 so'mga yetkazildi.

Mamlakatimizda 2016-yilda 800 ta "Tez yordam shaxobchasi va 1 ming 890 ta tez tibbiy yordam brigadasi faoliyat yuritgan bo'lsa, ayni paytda ular soni mos ravishda 1 ming 666 ta va 2 ming 861 taga yetkazildi. O'tgan yilning o'zida olis va chekka hududlardagi aholi punktlarda qo'shimcha 60 ta "Tez yordam" shaxobchasi tashkil etildi¹⁵.

Yangilanayotgan O'zbekistonning keyingi besh yildagi jozibador qiyofasi, insonparvarlik siyosati bobidagi ulkan yutuqlardan biri, shubhasiz, xotin-qizlarga davlat siyosatida amalga oshirilayotgan tadbirlar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yurtimizdagi 23 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazi, ularning 268 ta filiali va tumanlardagi 310 ta bo'limida ilgari faqat respublika darajasidagi amalga oshirilgan yuqori texnologik operatsiyalarni viloyat va tuman darajasida o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Namangan, Samarqand, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida esa buyrak transplantatsiyasini o'tkazish yo'lga qo'yildi.

15. *Tez yordamning yetib borish vaqti qanchaga qisqardi? "Xalq so'zi" 2022-y. 21-yanvar.*

BUYUK MEROS

Bu vazifalar nimalardan iboratligi Taraqqiyot strategiyasida aniq ko'rsatilgan bo'lib, ularning ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz;

– xususiy tibbiyot tashkilotlarida Davlat byudjeti hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davlatga yo'llashning elektron tizimi orqali bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini joriy qilish;

– farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko'paytirib, mahalliy bozorni 80 foizga ta'minlash;

– aholining ehtiyojmand qatlamini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foizga yetkazish;

– nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish;

– zamonaviy boshqaruv tizimi asosida "Tibbiyot klaster" modelini shakllantirish;

– tibbiy-sanitariya xizmatining jozibadorligini oshirish va sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash;

– xonadonbay "maqsadli" skrining o'tkazish choralarini ko'rish;

– 46 ta tumanlararo perinatal markazni tashkil etish;

– aholi takliflari asosida 31 ta oilaviy poliklinika va 105 ta oilaviy shifokor punktlarini ochish.

Umuman olganda, oldimizda sohani rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar turibdi. Bulardan maqsad-tibbiyotni yangi bosqichga ko'tarish.

**BUYUK ALLOMALARIMIZ
ABU RAYHON BERUNIY VA
IBN SINOLARNING RENESSANS
TARIXIDAGI O'RNI**

Genial aql zakovat va behad g'ayrat sohibi bo'lgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048 yillar) ham "Sharq Renessansi" davri qomusi olimlaridan biri edi. Uning dunyoqarashi X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshida O'rta Osiyoda rivojlangan davlat qaror topayotgan g'oyat murakkab, jo'shqin voqealarga boy tarixiy vaziyatda shakllandi.

Mashhur fan tarixchisi Saraton jahon fani tarixida XI asrning butun birinchi yarmini Beruniy davri deb ataydi. Beruniyning xizmatlarini ana shunday e'tirof etish mashhur hind olimi M.Nizomiddinning fikri bilan bir xil bo'lib chiqadi. M.Nizomiddin sharqshunoslarning XXV kongresida so'zga chiqib bunday degan edi: "Matematika, astronomiya, astrologiya, geografiya, geofizika, antropologiya, etnografiya, arxiologiya, filosofiya, botanika, minerologiya, qiyosiy din, sotsiologiya, fizika, tibbiyot tarixini Beruniyning ana shu sohalarga qo'shgan katta hissalarini ko'rib chiqmasdan turib, insoniyat ilmiga baho bo'lmaydi".

Beruniyning ilmiy asarlari uning buyuk xizmatlarining eng yorqin dalilidir. 150 dan ziyod fundamental asarlar, I.O.Krachkovskiyning so'zlariga ko'ra, uning o'z zamonidagi ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarning jamini qamrab olgan.

Abu Rayhon Beruniy deyarli 10 yil davom etgan

musofirligidan keyin Gurganjga qaytib, bu erda hukmdor Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun II tuzgan fanlar Akademiyasiga rahbarlik qildi. Bu yerda o'sha zamonning 20 ga yaqin allomalari, shu jumladan, Beruniyning zamondoshi ilm sohasidagi hamkori Abu Ali ibn Sino ham ilm sirlarini ochish bilan yaqindan yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro keng nishonlash to'g'risidagi tarixiy qarorining dalilidir". Allomaning muborak ma'rakasi Yunesko shafiligida o'tishi belgilab qo'yilgani esa yangi O'zbekistonning jahondagi o'rni, siyosiy obro'yi oshib, iqtisodiy barqarorlashib borayotganlidandir.

Nemis sharqshunosi E. Zaxau Beruniyni insoniyat hech qachon zabt eta olmaydigan cho'qqi sifatida tan olgan bo'lsa, F.Starr "Bugungi tarix maqolasida" Beruniyning shu uslublari aynan bugungi kun uslublari juda o'xshashligi bilan yangiliklar manbasi hisoblanadi.

Beruniy dunyoning tuzilishi masalasida dalil, ilmiy xulosalarini ilgari surgan. Jumladan, "Hindiston" asarida yerning aylanish harakatini sharhladi. "Geodeziya" asarida geosentrizmga oid ayrim nazariyalarni tanqid qildi.

Alloma u paytlari geografiyada ma'lum bo'lgan shimoliy o'lkalar–Boltiq va Oq dengiz, Sibir, Xitoy va Tibet kabi o'lkalar haqida ilmiy tahlillar yaratgan.

Beruniyning zamondoshi Yoqut Hamaviy O'rta Osiyo allomasi haqida mana bunday fikr aytgan edi: "U (Beruniy) muloqotda yoqimli, (kishilar bilan) muomalada muloyim,

o'z fikr–mulohazalarida ro'y-rost, ishlarida soxovatli kishi edi. Shuning uchun ham zamonasi ilm va ziyraklikda, hamkorlikda unga o'xshash kishini ko'rmadi".

Haqiqatdan ham ma'rifatli va ma'naviy yuksak inson qat'iyatli bo'lib, umumbashariy insonparvarlik ruhidagi g'oyalarni amalga oshirishi yo'lida fidoyi bo'ladi. Abu Rayhon Beruniyning buyukligi shundaki, u adolat mezoniga alohida e'tibor bergan. Adolat muhim axloqiy xislat bo'lib, u odamning uch istagi – toqat, jasurlik va donolik bilan paydo bo'ldi. Ushbu fazilatlarga ega bo'lgan odam o'zini arzimas ishlardan saqlaydi.

Yuqorida keltirganimizdek, sizga ma'lum Abu Rayhon Beruniy Buxoroda qisqa muddat yashaganlar. Bu shaharda yurtdoshlari va allomalar bilan uchrashganlarida tabiiyki, suhbat mavzusi ilm-fan haqida borgan. Natijada, ular shu paytdan Buxoroda yetishib kelayotgan yosh olim, tabib Ibn Sino faoliyatidan ham xabardor bo'lganlar. Beruniy esa Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi ilmiy asarlari bilan tanishishga muvaffaq bo'lgan, lekin o'zi bilan uchrashishga muyassar bo'lmagan. Biroq ikkala yozishmalar jarayonida bahs va munozara qilib borishgan. Abu Rayhon Beruniy keyinchalik fanlarga oid 40 ta savollar yo'llab, javoblaridan bahramand bo'lganlar. Aql va donolikka tayangan bahslar, mushohadalar sabab, ularning dunyoqarashi har ikkalasining do'stlashishiga zamin bo'lgan.

Shu tariqa 24 yoshli Beruniy va 17 yoshli Ibn Sinoning yaqindan tanishishi, do'stlashishi o'rta asr sharq sivilizatsiyasiga (taraqqiyotiga) misli ko'rilmagan hissa qo'shishiga sabab bo'ldi. Tarixiy manbalarga ko'ra,

Somoniylar Buxoroda hokimiyatni qaytadan egallashga intilmasliklariga sabab 999-yilda Buxoroning Nasr elikxon tomonidan zabt etilib, Somoniylar davlatining vorisi Muntasir qatl etilishi va hokimiyay butunlari Qoraxoniylar itoatiga o'tishi edi.

1002-yil otasidan judo bo'lgan Ibn Sino ukasi Mahmud bilan jafokashlikda hayot kechirdilar. Saroydagi nizolar, davlatdagi notinchlik, qolaversa, qoraxoniylar zulmining kuchayishi 1002-yilda Xorazmga ketishga majbur qildi. Ko'pchilik buxorolik olimlar G'aznaga ketishadi. Ibn Sinoga ham ular G'aznaga birgalikda ketishni taklif qilishadi. Hatto Mahmud G'aznaviy ularga nisbatan Ibn Sinoni ko'proq taklif qilishiga qaramasdan, alloma o'zi uchun Xorazmni tanlagan edi.

Keyinchalik tarixchilar Ibn Sinoning aynan Xorazm diyorini tanlashida quyidagilarni sabab qilib ko'rsatadilar. Shu bilan birga Xorazm yosh allomaning ijodiy-ilmiy faoliyati shakllanishida muhim rol o'ynagan. Abu Rayhon Beruniyning taklifi, qolaversa, xorazmlik Yusuf Xorazmiy, Abu Bakr al-Baroqiylarning unga bo'lgan hurmati, shuningdek, o'z navbatida Ibn Sinoning ularga bo'lgan ishonchi va Xorazmda ilm sohiblariga yaratilgan imkoniyatlar tib ilmining vohaga intilishiga, tashrifiga sabab bo'lgan.

Eng asosiy sabablardan biri yosh allomaning ilk ustozlari Notiliyning Xorazmga ketganligi, qolaversa, Xorazmda qadimdan ilm va ijod uchun imkoniyatlar yetarli bo'lganligi, shuningdek, o'z davrining buyuk allomasi Beruniy bilan do'stlashishi va maktub orqali muloqotlar olib borgani Ibn

Sinoni Xorazmga yetaklagan edi. Shu vaqtda Ma'mundek zakovatli, ilmni qadrllovchi podshohning "Bayt-ul hikmat"ida o'z davrining eng yetuk allomalari ijod-u ilm bilan band edilar.

Ibn Sino Gurganjga kelganida amir Ali ibn Ma'mun huzuriga boradi. "Men fiqhlar (huquqshunos) kiyimida edim. Qo'limda tasbeh, egnimda keng chopon va boshimda engagim va bog'langan katta salla edi. Men uchun va menga o'xshaganlarga yetarlicha miqdorda oylik tayin qilindi", – deb eslaydi Ibn Sino o'zining tarjimai holida.

Ilmga intilgan Ibn Sinoning Gurganjga kelishi Xorazm tarixining yorqin sahifalaridandir. "Bayt-ul Hikmat"dagi Al-Beruniy Ibn Sino kabi maslakdosh allomalarning yaratgan asarlaridan taralayotgan nurafshonlik, asrlar o'rtasida istiqbolga, taraqqiyotga xizmat qilib kelgan, bundan buyon ham tamaddunga hissa qo'shishi aniq.

Ibn Sino qomusiy olim, mutafakkir bo'lganligi uchun uning dunyoqarashi ko'p qirrali bo'lib, g'oyalari faqat uning tibbiyot fanlariga oid asarlaridagina ifodalanmay, balki ma'rifiy, ma'naviyatni tasnif qiluvchi asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning aniq fan sohalaridagi asarlari, falsafa, tib, hatto adabiyot bobidagi katta xizmatlari haqli ravishda uning jahon fani va madaniyatining ajoyib bir namoyondasi deyishga asos bor. Shu boisdan ham Ibn Sino Ma'mun akademiyasida ilmiy faoliyat ko'rsatganida va Abu Rayhon Beruniy bilan ilmiy muloqot qilganida quyidagilarni yozgan edi. "Ma'rifatchi botir odam bo'ladi. U o'lishdan ham qo'rqmaydigan saxovat egasi bo'ladi. U barcha behad narsalarga hirs qo'yishdan uzoq va barcha adashganlarga

mehribondir. U o'z nafsoniyati bilan ulug'vor bo'ladi".

Ibn Sino ham Beruniy kabi ichki kuchlar vositasi bilan erishilgan rohat-lazzatni asosiy va oqilona deb hisoblaydi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning astronomiya sohasidagi faoliyatiga qisqacha to'xtalamiz. U o'zining mashhur asaridan yana biri "Geodeziya"da 990-yilda, ya'ni 16-17 yoshidayoq mustaqil ravishda astronomik kuzatishlar olib borgan. Abu Rayhon Beruniy ushbu kuzatishlarida Kot-Firqal'aining geografik kengligini hamda ekliptikaning ekvatorga og'ish burchagining kattaligini aniqlash maqsadida quyoshning kecha-kunduz barobar bo'lgan paytdagi balandligini aniqlagan.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy birinchi ustoz va homiysi zamonasining mashhur olimi Abu Nasir Mansur ibn Iroqdan matematika va astronomiya asoslarini puxta o'rgangan va u bilan 995-yilgacha hamkorlikda faoliyat olib borgan. Abu Rayhon Beruniyning Qot-Firqalasining faoliyati davrida oddiy konstruksiya asosida rasadxona qurib, ancha takomillashtirgan. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida o'zi bilgan xorazmliklar, eronliklar, yunonlar, yahudiylar, xristianlar va arablarning o'tmish tarixi, tabiiy hodisalar haqida keng ma'lumotlar berish bilan birga bu xalqlarning taqvimlari, ya'ni yil, oy hisoblari hamda bayramlarini ilmiy-nazariy va hayotiy asosda batafsil ta'riflab bergan.

Ayniqsa, uning ilmiy ijodidagi eng asosiy, eng qimmatli "O'rta asarlarning astronomik ensiklopediyasi" deb tan olingan. 11 maqoladan iborat "Qonuniy Mas'udiy" kitobi dunyo fani xazinasiga qo'shilgan bebaho hissa bo'ldi.

Gurganjdagi vaziyat bilan tanishib yurgan Ibn Sino allomalar bilan muloqot jarayonidagi ilm-u fan bo'yicha suhbatlar qurib, yaratilayotgan asarlar, o'tkazilayotgan tajribalar haqida bahs yuritishardi. Ma'lumki, Beruniyning dorishunoslikka bag'ishlangan "Kitob as-Saydana fit-tib" (Tabiatda Saydana haqida kitob) asari O'rta Osiyoda osadigan dorivor o'simliklarning, giyohlarning tasnifini to'la ochib bergan. Ayni paytda o'sha kitob Ibn Sinoning ilmiy izlanishlarida beqiyos rol o'ynagan. Ibn Sino bu asarini mukammal o'rgangach, o'zining shoh asari bo'lmish "Tib qonunlari"ni Xorazmda yoza boshlagan muhim ilmiy manba bo'lgan kitobning birinchi tomini Xorazmda yozib tamomlagan.

Dunyoga mashhur sharqshunoslardan A.K.Arende, M.Sale kabi olimlar "Tib qonunlari"ning 20 yil davomida yozilganini qayd etishgan. Ular fikricha, Ibn Sinoga Xorazmda yaratilgan sharoit, Beruniy va boshqa yetuk olimlar, tabiblar bilan fikr almashuvlar, muloqotlar asarning aynan Xorazmda yozib boshlangan deyilishiga asos bo'la oladi.

Gurganjdagi hayot jarayonida shunday voqealarga guvoh bo'lib yurgan Ibn Sinoning sokin turmush tarzi G'aznaviyning Xorazmga tahdidi bois buzilgan. O'z siyosatida turkiy dunyoni va islom olamini birlashtirish, beboshlik va turli tartibsizliklarga barham berish, bu yo'lda hech narsadan qaytmaslikni maqsad qilib olgan Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni ham tasarrufiga olish harakatini boshladi. U o'z vakilini maktub bilan Gurganjga jo'natdi. Maktubni keltirgan shaxs Xo'ja Husayn Mikoil edi. Maktub Ibn Sino kabi Masixiy, Beruniy, Xorazmshoh

Ma'mun ibn Ma'mun va qolaversa, Xorazm taqdirini ham o'zgartirib yubordi. Ibn Sino va Masixiy Sulton Mahmud G'aznaviy qarorgohiga borishdan bosh tortgan bo'lsalar, Ibn Iroq, Hammor va Beruniylar G'aznaga borishga ixtiyor etdilar. Sulton Mahmud esa barcha gurganchlik olimlar G'aznaga kelishlarini amr qilgan edi. Vaziyatdan chiqish yo'lini Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun topdi. U Ibn Sinoga Gurganjni tark etishini taklif qildi.

Mahmud G'aznaviyga tobe bo'lishni islamagan Ibn Sino taxminan 1010-1011-yillarda Xorazmdan maxfiy ravishda chiqib, Xuroson tomon yo'l oldi. Beruniyning iltimosi bilan unga asli jurjonlik bo'lgan, Qoraqum bo'ylab bir necha bor safar qilgan Masixiy hamrohlik qiladigan bo'ldi. Beruniyning fikriga ko'ra, bu saxovatli xislatlar har bir kishining ajralmas axloqiy prinsipi bo'lib qolmog'i kerak. Odam hamma vaqt boshqalarning baxt-saodati haqida muayyan vazifalarini bajarish zarurligi haqida o'ylash lozim, chunki bu kishining dunyodagi butun faoliyati davomidagi yashash prinsipidir. Beruniy muruvvatni insonning chinakkam axloqiy xislatlaridan biri deb hisoblar edi. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muruvvatli kishi odamlarga xayrixoh bo'ladi, u halol va haqgo'y. Boylik orttirishga intilmaydi. O'z mehnati bilan, dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik va hokazo bilan shug'ullansa-da, baribir, o'z mehnati bilan yashaydi. "Muruvvatli erkak (mard), – deb yozgan edi Beruniy, – o'zidan va o'z mol-mulkidan boshqa (hech narsaga) ega bo'lmaydi, mol mulkning kimniki ekanligiga (hech kim) shubha qilmaydi".

Beruniy har qanday zo'rlik, istibdod, shafqatsizlikning ashaddiy dushmani edi. U faqat sotsial jihatdagina emas,

balki axloqiy nuqtai nazardan ham hokimiyatning haddan tashqari suiste'mol qilinishini keskin qoraladi. Olim baralla bunday degan edi: "Zo'rlik va yollash vositasi bilan amalga oshiriladigan majburiy mehnat doimiy va barqaror emas". Beruniyning ta'lim berishicha, mard odam bo'lish faqat so'zdagina emas, balki amalda ham haqqoniy bo'lish demakdir. Mutafakkir oshkora qilish uyat bo'lgan narsani yashiribotirishning hojati yo'q deb maslahat beradi. Mard kishi haqiqat uchun kurashib, hech qanday ta'qib va xavf-xatarga qaramay, yolg'onga qarshi kurashishi lozim. U bunday degan edi: "Yolg'ondan qochib haqiqatga amal qiladigan kishigina tahsin va maqtovg'a sazovor. Axir "haqiqat hatto sizning o'zingizga qarshi bo'lsa ham, haqiqatni ayting", – deganku.

Mutafakkirning olimlar axloqiga oid chaqirig'ini sira shubha qilmasdan barcha zamonlar olimlariga qaratilgan bebaho vasiyat deb hisoblash mumkin. Beruniyning musaffo bo'lishga da'vati.

Beruniy ta'limotining asosini tashkil etuvchi etik konstitutsiyasining muhim belgilaridan biri: – kishilarga beg'araz xizmat qilish, ularning baxt-saodati yo'lida o'z shaxsiy manfaatlarini qurbon etishga chaqiradi. Insondagi hamma ijobiy va salbiy jihatlar odamlarning egoistik yoki alturistik axloqiy xislatlari orqali muruvvatlilikning ahamiyatini xuddi ana shu nuqtai nazardan turib baholamoq lozim.

Sharq Renessansi davriga mansub gumanist olimlar "Odam tabiatning tojidir" – deb da'vo qilib, islomga zid o'laroq insonni hurmatlash va e'zozlashni talab qildilar.

BUYUK MEROS

Beruniy bu fikrga qo'shilishi bilan bir vaqtda odamning o'z xatti-harakatlari, ezgu ishlari bilan o'zining ulug'vorligini qadr-qimmatini va inson deb atalmish huquqini isbotlab berishi lozim deb qo'shimcha qilgan edi. Beruniyning o'zi ko'rsatgan shaxsiy namuna, uning so'zi bilan ishining bir bo'lishiga intilishi, uning axloq haqidagi fikrlarining ijtimoiy kuchi, o'sha paytda yoyilgan (sotsial adolatsizlik bilan bo'lgan) ayrim nuqsonlarni qattiq qoralash uchun X-XI asrlar etikasida gumanistik tendensiyaning atoqli namoyondasiga aylandi.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA AJDODLAR MEROSI VA QADRIYATLARNING TUTGAN O'RNI

Mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagini ta'minlash uchun teran fikrli, ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish davlat siyosatining bosh masalasidir.

Yurtimizda bundan 10 asr avval yaratilgan ibratli merosga tayangan holda, hozirgi zamon sivilizatsiyasi tufayli kelib chiqayotgan turli xildagi zamonaviy kasalliklar (endokrin, allergik, toksin, nurlanish, qon-tomir, onkologik va irsiy) hamda ayrim yomon illatlarini (chekish, ichkilikbozlik va giyohvandlik) bartaraf etishning aniq chora-tadbirlarini belgilash hozirgi kunning dolzarb masalalariga aylandi.

Abu Ali ibn Sino butun musulmon sharqining madaniyatini o'rta asrlar sharoitida eng oldingi o'ringa

olib chiqqan ulkan qomusiy olimlardan biridir. Uning sermahsul ijodi, boy ma'naviy merosini o'rganish, sog'lom avlod ta'lim-tarbiyasida, qalblarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ibn Sino axloq haqidagi nasihatlarini quyidagicha xulosalaydi. "Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingtadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchtadan ikkitasini esda saqlab va birini unutib yubor: Xudoni va o'lim haqligini yodingda tut, qilgan yaxshiliklaringni unutib yubor".

Ibn Sino salomatlikni saqlashning asosiy mahorati, inson hayoti uchun muhim bo'lgan umumiy omillar mo'tadilligini ta'minlashdan iboratdir degan edi.

Ibn Sinoning beqiyos, ko'p qirrali faoliyati tabiblik, jarrohlik, doyalik, dorishunosligi va hamma yonidagilarni davolashi, kasalliklarning oldini olish, ruhshunosligi va faylasufligi umum amaliyot shifokorni yaqinlashtirish lozim bo'lgan XXI asr andozasini, bunga birinchi navbatda biz Ibn Sino vatandoshlari loyiq bo'lishga, meditsina yo'nalishlarini yuzaki—"har sohadan bir shingil" qabilida emas, balki zehn mayog'i ming yillar osha yoritib turgan ulug' alloma Ibn Sino singari chuqur va keng qamrovli o'rganishimiz va uni hayotga samarali yo'llashimiz lozim.

Insoniyatning nasl-nasabi bir, ularning barchasi Odam Ato farzandlaridir. Turon qadimgi sivilizatsiyalarga tengdosh mustaqil sivilizatsiyadir. Turon sivilizatsiyasining kelib chiqishida turkiy xalqlarning qarindoshlik qoni va joni bor. Turon davlatchiligi tarixda harbiy-siyosiy

jihatdan uzluksiz to'qnashuv tufayli o'zgarib qolgan bo'lsa, sivilizatsiya nuqtai nazardan yaxlitlikka ega bo'lgan. Turon sivilizatsiyasidagi yaxlitlik qo'shni va jahon sivilizatsiyasiga qiziqishimizni kuchaytirib kelgan. Turon ma'naviyati uning sivilizatsiyasidan oldin kelib chiqsa—da, ma'naviyatning o'sishi va rivojlanishi sivilizatsiya bilan bog'liqdir. Sivilizatsiya ma'naviyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mavjudlik shakli bo'lsa ma'naviyat jamiyatda insonning ro'yobga chiqarish usulidir.

Ma'naviyat o'zini tanlash, o'zini o'zgalar bilan, o'zgalarni esa o'z nazari bilan taftish qila bilish demakdir. Har bir odam o'zini qanchalik tanisa, butun borlig'ini yaratgan kuchni va fuqarolar ma'naviyatining sog'lom asoslarda shakllanishini anglaydi. Shaxsning ma'naviy komilligi jamiyatning odilligiga, jamiyatning odilligi ma'naviyatning yuksakligiga, ma'naviyatning yuksakligi esa shaxs kamoliga ta'sir o'tkazaveradi. Shaxs, jamiyat va ma'naviyatning o'zaro uyg'unligi shu tariqa insoniyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimizda yoshlarni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, Vatanimizga mehr, sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga katta e'tibor berilib, davlat siyosatining asosiy, ulug'vor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Yoshlarning g'ayrati, shijoati, izchilligi va buyuk maqsadga intilishi ularning ma'naviy dunyosining boyligi, mazmuni va ishontirish darajasiga bog'liqdir. Ma'naviy jihatdan qashshoq, nosog'lom inson hech bir vaqt ilhom va

ko'tarinkilik bilan mehnat qilolmaydi, u kundalik hayotining girdobidan chiqolmaydi, istiqbolni ko'rmaydi.

Mustaqillik yillari bozor iqtisodiy siyosatiga o'tish davrida murakkab ijtimoiy masalalarni hal qilish ko'p jihatdan yoshlarning ma'naviy va aqliy kamoloti, iymon-e'tiqodiga, g'oyaviy, siyosiy yetukligi, nazariy bilimlarning amaliy ishida, so'z bilan qilinadigan ishlarning va eng asosiysi-sog'lom va barkamol avlod bo'lib yetishishligiga bog'liq.

Ma'lumki, XXI asr insoniyat oldiga, asosan, yoshlar oldiga eng murakkab, eng kuch-qudrat va aql-zakovatni talab etadigan vazifalarni qo'yadi. Bu global masalalarni qiynalmasdan to'g'ri hal etish esa faqat jismonan baquvvat va aqlan teran yoshlarninggina qo'lidan kelishi aniq.

Hozirgi iqtisodiy qiyinchiliklar, dori-darmonlarning taqchilligi, ko'pchilik oilalarning nosog'lom turmush tarzi va boshqalar, ayniqsa, o'qimayotgan va ishlamayotgan yoshlar salomatligiga katta putur yetkazmoqda. Ular orasida giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik illatlari ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Ularni tibbiy muassasalar tomonidan dispanser ko'rigiga olish va sog'lomlashtirish ma'lum sabablarga ko'ra juda qiyin kechmoqda.

Yoshlarimizning aksariyati ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanayaptilarmi, hattoki, o'z kelajaklari, o'z nasl-nasabi, o'z salomatligi ustida unchalik qayg'urmaydigan, loqayd, beparvo yoshlarni ham ko'plab uchratish mumkin.

Eng achinarlisi shundan iboratki, ushbu illatlarning kelajakdagi natijasi juda ham qudratli bo'lib, ular tuzatib bo'lmaydigan, qayta tiklab bo'lmaydigan xatoliklarga olib keladi. Buni faqat shu illatlar domiga kirib qolgan yoshlar

BUYUK MEROS

va ularning ota-onalarigina emas, balki o'zini inson sifatida hurmat qilishga idrok etgan barcha aholi, asosan, yoshlar chuqur his qila bilishi, ularning qanchalik mudhish hodisalarga olib kelishini yaqqol tasavvur qila bilishlari va unga qarshi choralarni ko'rishlari lozim.

Yoshlar orasidagi "Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, shaxs bo'lib shakllanadi" (Chekmasdan hayot gashtini sur) tarbiyaviy dasturi tarbiya jarayonida yangi akmeologik texnologiyalar izlanishlarining natijasi deb o'ylaymiz, chunki tarbiya jarayonining ham mazmuniga, ham shakl, ham uslublariga yangicha yondashishga harakat qilinmoqda.

Inson shaxs bo'lib shakllanishi uchun u avvalo jismoniy chiniqqan, aqliy barkamol, ong va tafakkuri shakllangan ma'naviy yetuk, dunyoqarashi keng, jamiyat taraqqiyotida aktiv qatnashadigan, inson hayotida uchraydigan ba'zi noaxloqiy xatti-harakatlaridan (ichish, chekish, narkotik moddalar iste'mol qilish, jinoyatchilik va h.k.) xoli, ularga nisbatan murossasiz bo'lmog'i lozim.

O'zbekistonning buyuk kelajagi, uning milliy istiqlol mafkurasini yaratishimiz uchun bizga sog'lom xalq, sog'lom yosh avlod kerak. U nafaqat jismonan kuchli, balki aqlan va ma'nan teran ham bo'lishi kerak. Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmaydi. Bola oilada yaxshi tarbiyalanmasa, maktab ham, jamoat tashkilotlari ham buning uddasidan chiqishlari mushkul. Shu boisdan, ayniqsa, jamiyatimizda onalar obro'sini oshirishga e'tibor kuchaytirilishi kerak. Xotin-qizlarimizning zamonaviy bilimlarni egallabgina qolmasdan, eng yuksak madaniyat sohiblari ham bo'lishlari kerak.

Aytish mumkinki, “Bolalar axloq-tarbiyasini oldindan o‘zi yashayotgan atrof–muhit va ko‘chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o‘xshaydilar, rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning ham shunday odob va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon axloqni o‘z uylaridan, ko‘chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o‘quvchidan qabul qiladilar”.

Avval qabul qilingan “Yoshlar yili”da Davlat dasturida belgilangan barcha vazifalar yoshlarning barcha muammo va istaklarini qamrab olib, ularning jamiyatimiz uchun munosib vorislar bo‘lib tarbiyalanishlariga qaratilgandi.

Ma'lumki, hech kim murabbiy va o‘qituvchidek o‘sib kelayotgan avlod qalbi va ongiga kuchli ta'sir ko‘rsata olmaydi. Ammo u avlod tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda muammo bo‘lgan ko‘plab obyektiv sabablar hal qilinmoqda. Avvalo, deyarli isitilmaydigan eski, talabga javob bermaydigan binolarda dars o‘tish, qolaversa, oylik maoshidan oylik maoshigacha amal-taqal qilib yashash kabi xatolar o‘qituvchi ma'naviy-ruhiy jihatdan ta'sir etibgina qolmasdan, uning obro‘-e'tiboriga, el orasidagi nufuziga, ijtimoiy madaniyatiga ham ta'sir etgan.

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Yurtimizda istiqomat qiladigan aholining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Yoshlar ijtimoiy-demokratik jihatdan katta imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” yili deb e‘lon qilinishini hech ikkilanmasdan yangi O‘zbekiston

tarixida muhim ahamiyatga molik voqeyliklardan deyish mumkin.

O'zbekiston istiqbolining yoshlar bilan bog'liq ekanligi olimlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yimoqda. Jamiyatimizdagi muhim qatlam hisoblangan yoshlarning ijtimoiy qiyofasi, tavsifi, fe'li, orzu-niyatlari haqida doimiy barobarlikdan tashqari, ularning faoliyatini ezgulikka yo'naltirib turish, oxir-oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalash bu sharaflı vazifalarning mazmunini tashkil etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat, san'at va adabiyot" kengashida 9 ta yo'nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Zero, o'zbek ma'rifatparvari Fitrat qayd etganidek, "Bolalarni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama etuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi".

Yangi O'zbekiston yoshlari erkin kasb tanlash, halol mehnat qilib orzu-havaslarini amalga oshirish, el qatori yashash uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

Mana shu imkoniyatlardan o'z manfaati uchun foydalanib, yoshlarning haq-huquqlarini poymol etayotgan ayrim kimsalar borligini esdan chiqarmaslik lozim.

Yoshlar muammolarini o'rganish va ularning davlat va hukumat tomonidan hal etilishi bilan bog'liq ko'p qirrali faoliyatning ayrim jihatlarini tahlil etish, ayni paytda yoshlarning ham bu jarayonlarda faol ishtirok etayotganini

hisobga olish orqali hozirgi voqelikka baho berish va istiqboldagi vazifalarni belgilashga doir nazorat takliflar tayyorlash, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar yechimini topishini taqoza etadi.

Yoshlar real ijtimoiy muhitda yashaydi va mehnat qiladi. Har qanday insoniy faoliyat ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy muhitning mazmun-mohiyati obyekt iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy sharoitlar ta'sirida o'zgaradi. Ammo ularning chuqur ildizi xalqning me'rosiy madaniyati, ma'naviy qadriyatlariga borib taqaladi.

Ijtimoiy muhit ma'lum qonunlar, tushunchalar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, bilim va hokazolarni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi qoidalarining ijtimoiy muhiti milliy mustaqillik g'oyalaridir. Ma'naviy merosimizning ilmiy-madaniy qadriyatlari hurmat va hozirgi zamon fanining yutuqlarini o'zlashtirishga intilish ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim.

Davlat rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq, yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash qarorlarida imtiyozli predmetlar ajratilayotganligi, ishsiz yigit-qizlarning bandligini ta'minlash uchun nafaqat shaharlarda, balki yurtimizning chekka qishloqlarida ham sanoat korxonalarini barpo etilayotgani ijtimoiy hayotimizda tarixiy voqelikka aylanayotir.

Hind xalqining buyuk davlat arbobi Indra Gandining shunday gapi bor: "Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun bir millatni o'qitgan bo'lasiz". Buning zamirida katta hayotiy haqiqat borligini albatta hammamiz yaxshi bilamiz.

Chunki o'qimishli insonlarning ma'naviy dunyosi, fikrlashi, odamoxunligi, dunyoqarashi boshqalarnikidan keskin farq qiladi. Qolaversa, yoshlarning oqil, odobli, mehnatsevar, sog'lom bo'lib o'sishi ko'p jihatdan otanonalar shaxsiga bog'liq. Va umuman, oiladagi muhit, otanonaning o'qimishli bo'lishi farzandlar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega.

To'kis oilada ulg'aygan, o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishishi uchun dadil intiladigan, hayotdan, taqdiridan, Vatandan rozi bo'lib yashaydigan avlod ezgulik bilan mashg'ul bo'ladi.

Mamlakatimizda qishloq joylarida yashayotgan kam ta'minlangan oilalarga mansub qizlarning oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limida davlat grantlari asosida o'qishlari uchun qo'shimcha kvotalar ajratilayotgani zamirida albatta ulkan maqsadlar mujassamdir. Shakshubhasiz, qizlarimiz uchun oliy ta'lim tizimida sirtqi, kechki bo'limlar ochilgani, hatto oilali ayollarning ziyoli bo'lishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgani yurtimizda minglab oilalarga bilim va ma'rifat nurini olib kirmoqda, o'z bilimini oqlagan o'quvchilar birinchi kursda davlat granti asosida, keyingi kurslarda a'lo baholarda o'qishini davom ettira olgan taqdirdagina, davlat granti bilan taqdirlanishini nazarda tutish mumkin. Shu tadbirning o'zi maktablarda ham, oliy o'quv yurtlarida ham yoshlarning o'qishga, o'qiganda ham a'lo o'qishga qiziqishlarini, ma'suliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Ko'pincha oliy o'quv yurtiga talabalar qabulini tashkilot va korxonalarining talabidan kelib chiqib belgilash

masalasi qo'yiladi. Quruq rasmiyatchilikdan boshqa natija bermayotgan samaramiz amaliyotdan tamomila voz kechish va bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy o'quv yurtiga qabul miqdorini bozor mexanizmlari orqali tartibga solish masalalarini jiddiy o'ylab ko'rish zarur. Ayniqsa, o'z mablag'lari hisobidan o'qiyman degan yoshlarning yo'lida hech qanday to'siq bo'lmasligi, diplom olishning asosiy sharti yakuniy davlat attestatsiya sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tishi bo'lmog'i lozim.

Bilim sifati yaxshi bo'lgan har bir oliy ma'lumotli mutaxassis-jamiyatimizning boyligi. Ana shundan kelib chiqqan holda ularning soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi degan tamoilga asoslanib, yo'l tutmog'imiz lozim. Agar ularning soni korxonalar talabidan juda oshib ketsa, ishga joylasha olmagan bitiruvchilar tadbirkorlik bilan shug'ullanadilar, o'zlarining bilimlariga tayanib, yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar.

Qancha yoshlarimiz xorijda mehnat qilishyapti. Agar shularda diplom, eng muhimi, shu diplomga mos kuchli bilim bo'lsa, qancha ijobiy samaralarga erishishi mumkin. Ular xorijda mutaxassis sifatida ishlab, o'zlariga ham, jamiyatimizga ham katta foyda keltirishlari mumkin.

Ta'lim tizimida mavjud holatlarning ta'magirlik, poraxo'rlik illatlarini bartaraf etishda ta'lim muassasa rahbarlarining roli beqiyos. Rahbar talabchan, o'z xatti-harakatlarida shaffof bo'lgan ta'lim muassasalarida jamoa a'zolari ham unga munosib ish tutishga, nojo'ya ishlardan o'zlarini tiyishga intiladi. Shu sababli ta'lim muassasalariga rahbarlarni tanlashda ularning ana shu xislatlariga alohida

e'tibor qaratilishi lozim.

Tabiatan pok, suyagi toza, xalq manfaatlarini ustun qo'ya biladigan, Yaratganning oldida gunoh qilishdan, jamiyat, davlat, oldida xiyonat qilishdan o'zini tiya oladigan, ozgina bo'lsa ham oxiratini o'ylaydigan, iymoni butun, irodasi mustahkam, insofli, diyonatli, vijdonli, mas'uliyatli, ko'pni ergashtira oladigan, ishning ko'zini biladigan rahbar jamoani to'g'ri yo'lga boshlaydi va jamoada adolat o'rnatadi. Ana shu talablarga javob bermaydigan rahbarlar lavozimidan zudlik bilan chetlashtirilishi va qolganlar uchun saboq bo'lmog'i lozim.

Buning asosi ysabablari nimalardan iborat?

- Bugungi yoshlar konsepsiyasi shakllanishining nazariy-metodik asoslari va qarashlarini davr talablari asosida shakllantirish;
- O'zbekistonda yoshlarning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni va rolini tizimli ishlab chiqish;
- Nodavlat va jamoat tashkilotlarining faoliyatida yoshlar masalasiga berilayotgan e'tiborining o'rmini baholash;
- Mamlakatimizning haqiqiy to'la mustaqilligini, yutuqlarini ta'minlaydigan kuch yoshlardir;
- Yangi tizimga o'tish jarayonida hayotiy tajribasi va tayyorgarligi bo'lmagan yoshlar kattalarga nisbatan ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelishi aniq;
- Yoshlar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar tashkil etish asosida ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini o'rganish siyosiy-ijtimoiy faollik darajalarini aniqlash;

• Respublikamizda yoshlar siyosatining shakllanish bosqichlarini yaqin o'tmish tariximiz va jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlardagi yoshlar siyosati bilan taqqoslash orqali ilmiy o'rganish;

• Jamiyatimiz rivojlanishining bugungi bosqichida yoshlar siyosatini amalga oshirishda ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarni tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning istiqboli xususida nazariy tavsiyalar berish, buning uchun yoshlarning siyosiy-ijtimoiy faollik darajasini, shuningdek, ularning muammolarini o'rganuvchi psixologik, diagnostik markazini yoki bo'limini tashkil etish va bunga tajribali, bilimli mutaxassislarni jalb etish.

Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakanga aylanishi kerak

Sh.Mirziyoyev

TARBIYA TA'LIMNING MEVASIDIR

Shuning uchun ham o'zbek millatining mentaliteti eng serqirra va mustahkamdir. Ularning bosib o'tgan tarixiy yo'li, jug'rofiy yashash sharoiti, quyoshli kunlar, hosildor zamini, sersuv daryolari, qadimiy obidalari shu xalqning aqliy qobiliyatlarini va ruhiy quvvatlarining yuksakligidan dalolat beradi.

Yurtimiz xalqlarining hayotga, insoniyatga, tabiatga, jamiyatga, sharoitga munosabati ko'p ming yillar davomida ana shunday mehnat va yaratuvchilik, mehribonlik va osoyishtalik, har bir keskin sharoitda kattaga hurmat,

kichikka izzat, murosa-yu madora, andisha—yu mulohazaga o‘rin va vaqt topish sharoitida shakllangan va sayqal topgan.

Milliylik omili-iqtisodiyotning tiriklik suvi, xazinalar oroli. Iqtisodiyotda milliylik bu millatning xususiy xislat va imkonyaitiga urf-odat, an'ana, turmush tarziga mehnat turlarining, ish joylarining, mehnat shartnomalarining payvastaligidir. Ishlab chiqarish bilan milliy xislatlar uzviy bog‘lanmasa, millat millat sifatida qiyinchilikraga uchraydi.

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Yurtimizda istiqomat qiladigan jami aholining 60 foizdan ziyodini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori sur‘atlarda o‘sishi yaqin chorak asrda ham davom etadi. 2023-yilga kelib, O‘zbekiston aholisi jami 36 million 779 kishidan ortishi kutilmoqda.

Albatta, Yangi O‘zbekistonni, uchunchi Renessans poydevorini barpo etish uchun avvalo uning mustahkam iqtisodiy, moddiy texnik asoslarini yoshlar yaratishi kerak.

Taraqqiyot jarayoniga ko‘z tashlaganda o‘tmish, bugun va kelajak qanchalik kuchli rishtalar bilan bog‘langanligini his etish mumkin.

Tarixiy xotira har bir xalq, millat o‘zining zamon va makondagi o‘rnini, nasl-nasabini, tarixga qo‘shgan hissasini, ilmiy-ma'naviy, madaniy saviyasini o‘zi anglab yetishidir. Inson, uning mohiyati, yashashi, kurashi va maqsadlari haqida o‘ylaganingda inson shaxsini kamolotga yetkazish, uning ichki va tashqi olamini tobora takomillashtira borish har bir davrning muhim muammosi bo‘lib qolganiga guvoh bo‘lasan.

Yangi O'zbekistonda komil inson tarbiyasi eng dolzarb masaladir. 2024-yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinganini hech ikkilanmasdan mamlakat tarixida muhim ahamiyatga molik voqeliklardan deyish mumkin. Zero, yoshlarning yangicha fikr yuritishi, dunyoqarashining o'zgarishi, siyosiy va ijtimoiy ongi o'sishining o'zi jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlardan darak beradi.

Hozirgi davrda hamma yutuqlarimizning asosiy manbasi oiladan boshlanadi. Farzand tarbiyasida unga ta'lim-tarbiya beradigan, uni erkalaydigan, kasb-hunarga o'rgatadigan va keyinchalik o'zi bilan yaqin do'st sifatida teng ko'radigan davrlar bo'ladi. Shu o'rinda asosiy masalani aslo unutishga haqqimiz yo'q, bolalarga hayotiy bilim, kasb-hunar, mehnat tajribasini berish bilan birga ularni halollikka, birovning haqidan hazar qilishga o'rgatmog'imiz lozim. Agar bola yomon bo'lsa, (o'g'irlik, yolg'onchilik, birovlarini aldab pul topish) bo'lsa, uni o'z vaqtida qaytarishimiz lozim, chunki ularning "qozonning qorasini yuqtirishi" juda oson. Agar bu borada kech qolingani oqibati yomon bo'lib, qonun oldida javob berishi barchaga ayon. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz dasturxon boshida, "halolidan bersin", "nomardga muhtoj qilmasin" deya duo qilishadi. Shu taxlitda ular farzandlari qulog'iga bu buyuk hikmatlarni quyib singdirib borishadi.

Qadimgi rivoyatlarda aytilishicha, donishmanddan "Dunyoda o'liklar ko'pmi, tiriklar" deb so'raganida "o'liklar" deb javob bera turib, qalb ko'zi yumuq, nafs bandalarini ham o'liklar qatoriga qo'shilishini aytgan ekan.

Hayot insonga bir marta beriladi deya undan o'z manfaati yo'lida insofsizlarcha foydalanish "Davring keldi, sur begim" qabilidagi ish yoshlikdan, oiladan boshlanadi. O'zbek xalqining bir ajoyib maqoli bor "Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi?" Ota-ona duosi, el-yurt duosi har qanday boylikdan, zeb-u zardan ortiq ekanligini unutishga haqqimiz yo'q.

Kezi kelganda aytish joizki, mustaqilligimiz sharofati tufayli nashr qilingan Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlarini qayta-qayta o'qimog'imiz, hamda bu donishmandlarning tarbiya borasidagi duolarini (g'oyalarini) farzandlarimiz ongiga qancha erta singdirsak, shuncha maqsadga muvofiqdir.

O'tgan 2023-yil respublikamizda insoniy bir shior "Inson qadri va sifatli ta'lim yili" shiori ostida o'tdi, yurtimizda ancha savobli ishlar amalga oshirildi. Insonni qadrlash azal-azaldan xalqimizning yuksak qadriyatlaridan. Lekin goho keksalarimiz "bizlarning qadrimizga yetinglar, ertaga borimizni-yo'g'imizni Xudo biladi" deb qolishadi.

Ota-onaning bolada haqqi ko'p, ular yo'q joydan farzandini dunyoga keltirgan, ta'lim-tarbiya bergan, oila hunarini o'rgatgan. Ota-onalar va bolalari bir-birining qadriga yetsin, izzat-hurmatda yashashsin, Xudo ularni bir-biriga har qanday boylikdan yuqori turuvchi mehr-muruvvatdan aslo ajratmasin deymiz.

Ya'ni, inson kibr-u havodan, takabburlik, manmanlikdan tonib, voz kechib, Tangrini tanimog'i, yomonliklardan uzoq turishi, Xudoning amriga bo'ysunishi, barcha ishlarda

taqdirga tan berib, rozi bo'lishi, kamtarin yashashi axloqiy kamolot hisoblanadi. Vijdonli, iymonli odam xalqqa rahmdil, do'stlarga vafodor bo'ladi. Karamli, mehr-muruvvatli bo'lish mardlar ishi. Alisher Navoiy yozishicha, lutf-u karam bir jafokashning og'ir yukini ko'tarmoq va o'sha yuk mashaqqatidan uni qutqarmoqdir. Navoiy o'z zamonidan boqaram, mard odamlar yo'qolib borayotganidan afsuslanib, "mehr (ya'ni quyosh) guli osmon gulshanidan o'zga yerda ochilmaydi" degan edi. Mardlarga yo'l ochish uchun esa iymon-e'tiqodli qilib tarbiyalash zarur.

Hozirgi ota-onalarning ayrimlari 50-60 yoshli insonlarda na dunyoviy, na ilmiy bilimlardan xabari bor. Ularning ko'pchiligida tarbiya sohasidagi bilimlari stixiyali darajadadir. Oilalarida kitoblardan darak yo'q. Axborot yangiliklarini ko'rishmaydilar. Dunyoda nima gaplar bo'layotganidan umuman xabari bo'lmagandan keyin bolalari nimadan xabardor bo'lsin?

O'rta maktabni bitirganlarning ko'pchiligi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmaganlar, savodsizlar mahallalarda ko'payib bormoqda.

Yoshlar xulq-atvori va xatti-harakatidagi axloqiy fazilatlarni mustahkamlashda oila, mahalla va jamoat tashkilotlarning mehnat jamoalari, maktab va boshqa ijodiy jamoalar ham katta rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekiston xalqlarining turmush tarzi sotsial va milliy tenglik, erkaklar va xotin-qizlarning teng huquqliligi, do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordamga asoslangan. Turmush va oila sotsial hayotning bir bo'lagidir.

Har bir tarixiy davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum

o'zining spesifik turmush ukladiga ega.

Biroq turmush va oila ishlab chiqarish usuliga nisbatan mustaqil, o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

Bu oilalarda katta-kichik avlod o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlar birligi, ma'naviy yaqinlikni ta'minlovchi hamda ikki avlod o'rtasida bilim va hayotiy tajriba almashish holati hukm suradi. Bu esa ular o'rtasida og'aynichilik, o'rtoqlik, o'zaro hamkorlik, birodarlikni rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Bolalarda bu fazilatlarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga, ularda kollektiv mehnat va o'zaro hamkorlik munosabatlarining shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

Shunday qilib, oilada kollektiv hayotning dastlabki kurtaklari shakllanadi va rivojlanadi. Yoshlarda bu hamjihat oila orqali yangi jamiyat kishilariga xos axloqiy fazilatlar shakllanadi. Chunki yosh avlod bu fazilatlarni oilada ko'rgan tarbiyasidan oladi.

Konstitutsiyamizning yangi tahririda belgilangan "Oilada o'zaro hurmat va bolalar tarbiyasi haqida g'amxo'rlik" prinsipiga asoslangan oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, do'stlik, o'zaro yordam, ota-onalarning bolalar to'g'risida birlikda g'amxo'rlik qilishi, oila hayotiga doir masalalarni hamjihatlik bilan hal qilish kabi munosabatlar oila kollektivining asosini tashkil qiladi.

Yosh avlodning tarbiyasi faqat tarbiyaviy ish bilangina chegaralanmasdan, balki ijtimoiy hayotning yangi tartibi, ukladiga ham bog'liqdir.

Hayotimizning xarakterli belgilarini, shu jumladan,

ijtimoiy mehnat, oila va turmush proseslarini ko'zdan kechirar ekanmiz, Yangi O'zbekistonda ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning roli oshib, mazmuni hamda mohiyati rivojlanib va boyib borayotganini ko'ramiz.

Insonning ilk ongi, dunyoqarashi, uning xulq-atvori, ayniqsa, oilada shakllana boshlaydi. Ya'ni uning xatti-harakati, faoliyati, xarakter va axloqiy qiyofasi oilaviy munosabatlar orqali belgilanadi.

Oila murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, O'zbekistondagi jamiyatning boshlang'ich yacheykasidir.

Yangi O'zbekistondagi oilaviy munosabatlarda Prezidentning Farmon va qarorlari xalqimizning dilidagi g'oyalarni qo'llab-quvvatladi.

Oldingi vaqtlarda mehribonlik uylarida, unib-o'sayotgan bolalarni begona kishilarga bermas edilar. Ammo keyingi vaqtlarda farzandlari bo'lmagan oilalarning iltimoslariga ko'ra, farzandsiz oilalarga 5-10 tagacha bolalarni o'z oilalariga farzand qilib olib, o'sha o'g'il-qizlarning xursandchiliklariga hamohang bo'lmoqda. O'sha ota-onalarga davlat moddiy yordam qo'llarini cho'zib kelmoqda. Ota-onasiz bolalarning xursandchiliklari beqiyosdir.

Darhaqiqat, xalqimizda eyrga tushgan non uvog'ini ko'zga surish va o'pib toza joyga olib qo'yish, go'daklar yotgan beshikda yostiq ostiga non qo'yish, o'zga yurtga ketayotganda non tishlatib qolish marosimlari ham qadriyatlarimizning asrlar davomida shakllanib kelganligining dalilidir. Zero, milliy qadriyatlar o'zlikni anglashda, millatni birlashtirishda ma'naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

BUYUK MEROS

Kasbga, hunarga mehrning avvali, haqiqatan ham, oilada shakllanadi. Negaki, ota-onaning o'zidan katta aka va opalarning o'z kasbi bilan faxrlanish his-tuyg'ulari oilaviy gurunglarda namoyon bo'ladi. Oiladagi farovonlik va uning ildizi ishning ko'zini bilib qilingan mehnat ekanligining farzand ongiga singdirilishi ham g'oyat muhimdir. Yurtboshimiz aytganidek, "Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi". "Ota kasbini egallash" eng qadimgi an'analarimizdan biri bo'lib, u oilaning shakllanishi, dastlabki mehnat taqsimotlari paydo bo'lgan davr bilan bog'liqdir. Yoki "Onasini ko'r—da qizini ol", degan naqlda qiz bolaning onaning ayollarga xos hayo, iffat, izzat, kayvonilik va boshqa yaxshi fazilatlari bilan bir qatorda, uning mehnatsevarligi, pazandaligi, chevarligini o'zlashtirishi ham ko'zda tutilgan.

MILLIY TA'LIM SARCHASHMASI

Insonni shakllantirish, uning aql-idrokini mukammalikka ko'tarish, komil insonni voyaga yetkazish insoniyatning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Bu borada ko'plab nazariy va amaliy ishlar sinab ko'rilgan. Shunga qaramasdan, birinchi Renessans davridan oldin ham tarbiya ishining qiyinligi, keksa avlodning yoshlar tarbiyasidan norozilik hollari tasvirlangan.

Yuqoridagi fikrlardan chiqadigan xulosa shundan iboratki, jamiyatimizdagi mavjud illatlar, muammolar haqida ko'p gapirmasdan, davrning talablari va o'ziga xos rivojlanish metodologiyasidan kelib chiqib, inson tarbiyasi eng avvalo, yoshlarning tafakkuri, ong tushunchasi,

kelajakka bo'lgan dunyoqarashini o'zgartirishga barcha e'tiborni amalga oshirishi lozim.

Yangi O'zbekistondagi hayotimiz tajribasidan dalolat berishicha, komil inson tarbiyasi eng dolzarb masala bo'lib qoldi. Buning sabablari shundan iboratki, mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida ta'kidlanganidek, iqtisodiy rivojlanish uchun yangi yo'nalish qabul qilindi. Madaniy va ijtimoiy sohalarda jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yangi sanoatlashgan taraqqiyot, ko'p qirrali ishlarni zamon talablari asosida amalga oshirishda yangicha fikrlay oladigan, aql-zakovatli, uddaburron, kadrlar ishlashlarini taqozo qiladi. Yurtboshimiz "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" munosabati bilan komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlyadigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli yoshlarni qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Prezident masalani juda qat'iy va keskin qo'yadi. Najot ta'limda, najot bilimda, najotmaktabda. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 30.06.2017-yil.

2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. Toshkent. “O‘zbekiston” 2017-y.

3. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent.- “O‘zbekiston”-2019, Buyuk mutafakkir va y.

4. Mirziyoyev Sh.M.

5. Shavkat Mirziyoyev. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 23-dekabr 2023-yil.

6. A.A.Abdullayev “Rol Xorezmskiy uchenqx i tvorchestva Ibn Sinq”. 2001. “Fan”, 65-bet.

7. Ibn Sino va tadbiri manzili. “Fan”, 1986. 86 bet.

8. “Xalq so‘zi” gazetasi 2023-yil 23-dekabr.

9. Ibn Sino. “Risolai ishq” (fors tilida). Tehron. 3-bet.

10. Abu Ali ibn Sino “Donishnoma” 217-bet.

11. Abu Rayhon Beruniy Indiya Sochineniya. T-2. Toshkent. Izd. “Fan”, 1963-y. 58-bet.

12. Fitrat A. “Rahbari najot” 1999-y. 56-bet.

13. S.N.Grigoryan “Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednogo Vostoka”. 205-bet

Qaydlar uchun

MUNDARIJA

Kirish soʻzi.	3
Buyuk meros va zamonaviy sivilizatsiya.	4
IBN Sino faoliyati XXI asr umumamaliyot shifokorining mumtoz milliy model.	16
Abu Ali Ibn Sinoning barkamol avlodni voyaga yetkazishgʻoyas.	18
Sogʻlom farzand-sogʻlom kelajak.	23
Abu Ali ibn Sino yozgan asarining ahamiyati.	26
Buyuk meros va zamonaviy sivilizatsiya.	27
Buyuk allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning Renessans tarixidagi oʻrni.	44
Barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlar merosi va qadriyatlarning tutgan oʻrni.	53
Tarbiya-ta'limning mevasidir.	64
Milliy ta'lim sarchashmasi.	71
Foydalangan adabiyotlar.	73

23.01.2021

Xalimbetov Yusup Masharipovich

**Buyuk meros va zamonaviy
sivilizatsiya**

Muharrir:
Asadullo SHUKUROV

Musahhih:
Gulhayo ANOROVA

Sahifalovchi:
Abdushukur ISMOILZODA

«Mahorat» nashriyot- matbaa ijodiy uyi
100129. Samarqand shahri,
Anhor ko'chasi, 33 uy.
Tasdiqnoma: № 3278 (13.12.2021)

Terishga 2024-yil yanvarda berildi.
Bosishga 2024-yil fevralda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16 «Times New Roman»
garniturasida ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.
4,75 hisob nashr tabog'i.
Adadi 50 nusxa. 09-son buyurtma.
«Bunyodkor avlod matbuoti» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Samarqand shahri, Anhor ko'chasi, 33-uy





Yu.M.Xalimbetov 1940-yilning 6-oktyabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida tavallud topdi. Samarqand Davlat Universiteti roman-german tillari fakultetiga o'qishga kirib, ushbu fakultetni 1962-yilda muvaffaqiyatli tamomlab, 1966-1969-yillarda institut yoshlar tashkilotida, keyinchalik 1969-1972-yillarda Samarqand viloyati yoshlar qo'mitasi bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

1973-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi falsafa-huquq institutiga aspiranturaga o'qishga kirib, uni 1976-yilda muvaffaqiyatli tamomladi, akademik I.M.Mo'minov ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

ISBN 978-9910-9260-1-3



9 789910 926013